

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

XOLIYOROV AKROM BAROTOVICH

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI VA UNING USTUVOR
YO'NALISHLARI**

**5340100 – “Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: i.f.d. O.Xatamov

Termiz – 2014

MUNDARIJA

	Betlar
KIRISH.....	3-5
1- BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLATNI MOLIYA SIYOSATI MOHIYATI VA FUNKTSIYALARI	6-39
1.1. Iqtisodiyotii modernizatsiyalashning mazmun- mohiyati va uni tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi.....	6-18
1.2. Moliyaviy siyosatning mohiyati, funktsiyalari va mexanizmlari.....	18-32
1.3. O'zbekiston Respublikasida moliya siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari	32-39
2- BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MOLIYA SIYOSATINING ROLI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH,.....	40-76
2.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda moliya siyosatining roli	40-64
2.2. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashda moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari.....	64-76
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	77-79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..	80-83

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, moliya siyosatini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish jarayonida davlatning oldida turgan vazifalarni bajarishga, jamiyat iqtisodiy manfaatlariga ta'sir etish shart-sharoitlari yaratiladi.

Mamlakatning moliya siyosati qator omillarga: tarixiy sharoitlar, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar, ularga erishish muddatlari va hattoki milliy udumlarga ham bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayotning evolyutsion rivojlanish va davlat tizimining barqarorlik davrida davlatning moliya siyosatii mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish va o'zgartirishga yo'naltirilgan. Inqilobiy o'zgarishlar davrida mavjud tizimni tezroq o'zgartirishdan manfaatdor siyosiy kuchlar uni buzish va yangi ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan siyosat olib boradilar. Moliya siyosati - bu davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisidir.

Moliya siyosatining muhim vazifasi - u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Bu siyosat iqtisodiy siyosatga bog'liq ammo bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko'rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo'lish bilan bir vaqtda davlat siyosatini har qanday istalgan ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun hoh ijtimoiy, hoh iqtisodiy, yoki xalqaro munosabatlar doirasida muhim vositadir.

Moliya siyosatining samaradorligini belgilash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilganligi, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar amalga oshirilganligi baholanishi lozim. YUqoridagi fikrlarni e'tiborga oladigan bo'lsak bitiruv malakaviy ishning dolzarb masalaga qaratilganligidan dalolat beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Moliya siyosatining nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishda hamda undan foydalanishga imkon beradigan

tavsiyalar A.Baltina[11], V.Bogarov[12] V.Bukuta, YU.Lvov[13], M.Bunkina, V.Semenov[31], Dj.Van Xorn[14], SH.Gataulin[28], I.Alimov[10], D.G'ozibekov, A.Vahobov[17,18], T.Malikov, N.Haydarov[23-25,40,41], Z.Yo'ldoshev[20], S.Galitskaya[19], O.Rashidov, V.Xoyer, N.Vasilev, T.Karlin[15], V.Kovaleva[21], G.Kolpakova[22], SH.Abdullaeva, O.Sattorov, V. Rodionova[27], ye.SHabalina, M.Tkachuk[29], M.Romanovskiy[32], A. Troshin, T.Mazurina[33], V. Fomkina[33], V.Litovchenko[36], V.Senchagova, A. Arxipova[35], O.Vrublevskaya, B.Sabanti[37], A. Gryaznova, ye.Markina[39], B. Tuxliev, L. Alieva , S.Aliev[42] asarlarida keltirilgan bo'lib, ular tomonidan moliya siyosatining mohiyati, vazifalari, mexanizmlari atroflicha bayon etilgan.

YUqorida aytilganlarni hisobga olganda, ushbu **bitiruv malakaviy ishning maqsadi** – iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlatning moliyaviy siyosati mazmun-mohiyati va uning ustuvor yo'nalishlarini o'rganishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishishdagi **bitiruv malakaviy ishning vazifalari** quyidagilar:

- moliyaviy siyosatning mohiyati, funktsiyalari va mexanizmlarini yoritish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi moliya siyosatining asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda moliya siyosatining rolini tahlil etish;
- keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalash ishlarini davom ettirishda moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari o'rganish.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti va predmeti. Davlatning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida olib borayotgan moliyaviy siyosati tadqiqot ob'ekti hisoblanadi va undagi iqtisodiy munosabatlar tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning axborot ta'minotini Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmalari, moliya institutlari faoliyatiga tegishli ma'lumotlar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlatning moliyaviy siyosati o'rganish asosida uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Ish kirish, mazmunan o'zaro bog'langan 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat

1-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLATNI MOLIYA SIYOSATI MOHIYATI VA FUNKTSIYALARI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning mazmun- mohiyati va uni tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi.

Mamlakatni modernizatsiyalash uchun dastlab mamlakat iqtisodiyotini, shu jumladan, canoatning hozirgi holatini chuqur va konqret baholash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz – boshlagan islohotlarimiz, iqtisodiyotimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirish, hayotimiz darajasi va sifatini izchil oshirib borishni ta'minlash, tenglar ichida teng bo'lib, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashdan iboratdir.»¹

Ma'lumki, iqtisodiyotni modernizatsiyalashning maqsadi - mamlakat iqtisodiyotining yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish asosida mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish, mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va aholining o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashga iqtisodiy vazifa sifatida qarash va uning strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasini ishlab chiqish uchun taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyoti va eksporti tarkibini chuqur tahlil qilish va qanday iqtisodiyotni qurishimizni aniqlab olishimiz lozim. Ana shundan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotida qaysi tarmoqlar yetakchi bo'lishi kerak, qanday kuch va resurslarga asoslanishi - qanday natijalarga erishishi mumkinligini aniq belgilab olish lozim. Modernizatsiyalash maqsadiga mamlakat iqtisodiyot tarkibini va rivojlanish holatini chuqur tahlil qilmasdan va erishilishi ko'zda

¹ И.А.Каримов “2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади” Мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси, “Халқ сўзи” газетаси, 2014 йил 19 январь.

tutilgan namunalar bilan qiyosiy taqqoslashsiz erishib bo'lmaydi. SHuning uchun mamlakatimiz iqtisodiyotini har tomonlama modernizatsiyalashni amalga oshirishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqishimiz lozim.

Modernizatsiya ingliz leksikonidagi modern (lotinchada inodernus) so'zidan olingan bo'lib, 1500 yildan buyon «zamonaviy, qadimiy bo'lmagan, bugungi kunda paydo bo'lgan» degan, ma'noni anglatib kelmoqta. Ushbu tushuncha Renessans davrida o'qimishli kishilar tomonidan G'arbning O'rta asr qorong'iligidan chiqish yo'li sifatida tilga olingan. Modern gushunchasi anglangan taraqqiyot bilan bog'liq qarama-qarshi tushuncha hisoblanadi.

Modernizatsiya - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy institutlari va iqtisodiy asosining har tomonlama yangilanishini bildiradi. Modernizatsiya bu aniq harakatlar dasturi bo'lib, iqtisodiyotni barqaror sur'atlarda rivojlantirish, mamlakatimizni dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish yo'liga o'tkazish vositasidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash modellarining har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. SHu bilan birga, ushbu jarayonni harakatlantiruvchi tarmoqlar turli mamlakatlarda umumiy, o'xshash jihatlarga ham ega.

Modernizatsiya jarayonini harakatlantiruvchi tarmoqlar — bu agrar (ishchi kuchidan foydalanish) yoki resurs (zarur investitsiyalar) tarmoqlar asosida shakllantirilgan ommaviy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlaridir. Birinchi holatda, G'arbiy yevropa mamlakatlari va AQSH (XIX asr), Koreya Respublikasi, Xitoy va Malayziyani (XX asr), ikkinchi holatda Fors ko'rfazi mamlakatlari — Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Qatarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Rossiya esa modernizatsiyalashning ustuvor tarmoqlari sifatida samarali va yangi yoqilg'i turlari, meditsina texnologiyalari va farmatsevtika, yadro energetikasi, informatsion texnologiyalar, kosmos va telekommunikatsiyalarni belgilab oldi[].

SHunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash g'oyasi energetika yoqilg'i, xom ashyo, yarim fabrikatlar ishlab chiqarish sohasidagi yetakchilik

g'oyasi bilan mos kelmas ekan.

Tahlillar ko'rsatishicha, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalashga quyidagi xususiyatlar xos bo'lishi zarur:

tarmoqlar ommaviy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim;

tarmoqlar xom ashyoga to'liq bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yuqori qo'shilgan qiymat ulushiga ega bo'lishi kerak;

yangi texnologiyalarni qo'llash va ularga bo'lgan talabni qo'llab-quvvatlash zarur;

mehnat sig'imdorligi yuqori bo'lmasligi va ushbu tarmoqlarni rivojlantirishdan manfaagdor ishchilar guruhi shakllantirilishi lozim;

modernizatsiya uchun asos bo'lgan tarmoqpar, birinchi navbatda, jahon bozoriga va undan keyingina ichki bozorga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, Osiyo mamlakatlarida kemasozlik, avtomobilsozlik, keyingi bosqichlarda audio va video texnikalar ishlab chiqarish, kompyuter va axborotlar industriyasi tarmoqlari iqtisodiyotni modernizatsiyalashning harakatlantiruvchi tarmoqlari sifatida rivojlantirilgan. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi G'arbda erishilgan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etadi. Masalan, YAponiyada 1960-

1970 yillarda texnologiyalar importi ularning eksportidan sakkiz baravar ko'p bo'lgan. Ushbu tarmoqlar qisqa muddatda ommaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Jumladan, Koreya Respublikasida 2000 yilda umumiy tonnaji 12,2 mln. tonnaga teng (jahon tonnajining 54% i) savdo kemalarini ishlab chiqargan. 1990 yillarning oxirida jahonda mobil telefonlar ishlab chiqarishning 34% i Malayziya hissasiga to'g'ri kelgan. 2000 yilda jahon kompyuterlar ishlab chiqarish hajmining 39% i, televizorlarning 42% i, orgtexnika va ofis uskunalarining 50% dan ortig'i Xitoyda ishlab chiqarilgan. Ushbu tarmoqlar «miqyos ta'siri» natijasidagi afzalliklar tufayli hech qachon ichki bozorga yo'naltirilmagan. Masalan, Koreya Respublikasida 1967 yili mamlakatda 165 000 ta avtomobil mavjud bo'lgani holda, 300 000 ta avtomobil ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavod qurilgan. Iqtisodiy o'sishning yetakchi ishlab

chiqarish tarmoqlarida xom ashyo va energiya sarfi tayyor mahsulot qiymatining 10-12% idan (elektronika) 22- 25% gacha (kemasozlik) tashkil etgan []. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash tufayli yaratilgan yangi tarmoqlarda modernizatsiya jarayonini davom ettirishdan manfaatdor ommaviy ishchi sinfi paydo bo'ldi. Masalan, 1990 yillarning oxirida Malayziyada shpchilarning 14% i elektronika sanoatida, Koreyada ishchilariing 11% i kemasozlik va avtomobilsozlik sanoatida, Xitoyda ishchilarning 10% i orggexnika ishlab chiqarishda band bo'lgan. Oxirgi 25- 30 yil ichida Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotini «modernizatsiyalash lokomotivlari» jahon iqtisodiyotida real voqelikka aylandi.

Oxirgi 10 yillikda Osiyo va Lotin Amerikasidagi qator mamlakatlar modernizatsiyalash jarayonlarini yuqori texnologiyani eksport qiluvchi hududlarga aylantirdi. YUqori texnologiyaning qiymati ishlab chiqarish miqyosi kengayib borgan sari arzonlashdi va ular sanoat mahsulotlarini eksport qilishga nisbatan samarali bo'lib qoldi. Natijada rivojlangan mamlakatlarda o'ta murakkab va kapital sig'imdorligi yuqori bo'lgan mikrochip va farmotsevtika mahsulotlari ham modernizatsiyalashni harakatlantiruvchi tarmoqlarga aylandi.

Modernizatsion o'zgarishlar milliy iqtisodiyotda quyidagi muammolarni hal etish imkonini beradi:

- iqtisodiyotda jadal sur'atlarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- aholi turmush darajasini oshirish;
- jahon iqqisodiyotida munosib o'rin egallash.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni modernizatsiyalashning quyidagi uch modeli farqlanadi: inqilobiy; tabiiy; quvib yetadigan modernizatsiya.

Tabiiy va quvib yetadigan modernizatsiyalash modeli o'rtasidagi farq nimadan iborat? Ular o'rtasidagi asosiy farq davlatning tutadigan o'rnidan iborat. Tabiiy modernizatsiyalash stsenariyalari, rivojlanish variantlari va tizimining o'ziga xos xususiyati, uning umumiy egiluvchanligining yuqoriligi bilan belgilanadi. Quvib yetadigan modernizatsiyalashda davlatning yetakchi o'rin tutishi yagona to'g'ri rivojlanish yo'nalishini tanlashda xatolikka yo'l

qo'yish ehtimolini va harakatlantiruvchi kuchlar keskinligini oshirib, tizimli risklar va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishini kuchaytiradi. Ushbu davrda iqtisodiy rivojlanish uchun ma'muriy davlat emas, balki katta hamkor talab etiladi.

Inqilobiy modernizatsiya modeli qoloq mamlakatlarda sodir bo'ladi, chunki boshqa yo'l bilan taraqqiy etgan mamlakatlarga yetib bo'lmaydi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnining yaxshilanishida eng muvaffaqiyatli yo'l tabiiy modernizatsiyalash hisoblanadi. Tabiiy modernizatsiyalash deganda shunday modernizatsiyalash tushuniladiki, unda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakat resurslariga asoslangan holda butun jamiyat manfaatlarini qondirish uchun tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Ushbu modernizatsiyalashga AQSHning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jadal sur'atlarda rivojlanishini, Ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniya, Frantsiya, YAponiyaning modernizatsiyalanishini, Irlandiyaning XXI asr bo'sag'asida yangi modernizatsiyalanishini misol qilib keltirish mumkin.

Jahon iqtisodiyotini modernizatsiyalash amaliyoti bosqichlarini chuqur tahlil qilish tabiiy modernizatsiyalash modeli uchun quyidagi belgilar xos ekanligini aniqlash imkonini berdi:

Birinchi, modernizatsiyalash yoki uni amalga oshirayotgan avlodning maqsadini aniq belgilab olish lozim. Masalan, amerikacha modernizatsiyalash o'z oldiga erkin jamiyat qurish vazifasini qo'ygan edi. SHu bilan bir qatorda, Germaniya va YAponiyadagi Ikkinchi jahon urushidan keyingi modernizatsiyalashning maqsadi ideologik jihatdan urushda mag'lub bo'lishdan so'ng tiklanish qobiliyatiga ega ekanligini isbotlab ko'rsatish edi.

Ikkinchi, millatning hamma qatlamlarining, birlashuvi. rus olimlarining fikricha, modernizatsiya jarayonida faol qatnashuvchi aholini quyidagi besh tabaqaga bo'lish mumkin: a) millat g'oyasini eltuvchi siyosatchilar; b) resurslarni samarali taqsimlash g'oyasini eltuvchi tadbirkorlar; v) mamlakat taraqqiyoti istiqbolini oldindan ko'ra biluvchi, bashoratlovchilar; g)

modernizatsiyani tashkil etuvchi xizmatchilar; d) jamiyat xavfsizligini kafolatlovchi kuchli institutlar.

YUqoridagi aholining turli qatlamlarining birlashuvi millatning samarali modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirish imkonini beradi.

Agar aholining turli qatlamlari o'rtasida kelishmovchiliklar, ixtiloflar bo'lsa, birlik bo'lmagani holda ham inqilobiy modernizatsiyalash uchun shart-sharoitlar vujudga keladi.

Masalan, bugungi kunda Rossiyada modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirishdagi asosiy muammo millatning faol qatlamlari hisoblangan texnokrat ziyolilar va xususiy tadbirkorlarning ushbu siyosatni amalga oshirishga yetarli darajada jalb etilmaganligi hisoblanadi.

Uchinchidan, o'z kuchiga suyanish va ishonish. Modernizatsiyalashning ushbu belgisi amerikalik iqqisodchi M.Porterning «tashqi texnologiya va tovarlar bozorining barqaror va samarali rivojlanishi uchun ushbu tovarlar va xizmatlar katta sig'imli ichki bozorga ega bo'lishi lozim, ya'ni yangi tovarlar mamlakat ichki bozorida xaridorni topgandan so'ng millat qatlamlarining birdamligi, jipsligi avtomatik tarzda kuchayadi va mamlakatda yirik, zamonaviy kompaniyalar paydo bo'lib, ushbu jarayonning negiziga aylanadi» degan, g'oyasiga asoslanadi. Modernizatsiyalash jarayonining kuchayishi va chuqurlashuvida mamlakatning kuchli moliya tizimi muhim rol o'ynaydi. AQSHda modernizatsiyalash jarayonida Federal Rezerv tizimi (FRT) va YAponiyada o'ziga xos kuchli, samarali moliya-sanoat tizimi yaratildi. Mustaqil moliya tizimining yaratilishi hamda modernizatsiyalash tufayli iqqisodiyot samaradorligining keskin o'sishi mamlakat milliy valyutasi xarid qobiliyatini oshiradi va jahon moliya bozoridagi mavqeini kuchaytiradi.

Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish stragegiyasini aniq belgilab olish lozim. Tabiiy modernizatsiyalash mamlakatning puxta, yaxshi o'ylangan rivojlanish xatti-harakati bo'lib, millatni ortiqcha jalb etishni keskinlashtirish talab etilmaydi va pirovard natijada mamlakat xalqaro mehnat taqsimotida o'zi uchun qulay, muhim o'rinni egallaydi.

Quvib yetadigan modernizatsiyalash modelining muhim belgisi davlatning jamiyatda gipertroflashgan rol o'ynashidan iboratdir. Ushbu modelda rivojlanayotgan mamlakatlarda jamiyatni joriy boshqarish bilan chuqur, mohiyatan iqtisodiy modernizatsiyalash manfaatlari qarama-qarshi turadi. Ushbu holatni eronda XX asr oxirida amalga oshirilgan modernizatsiyalash siyosatida kuzatish mumkin. Quvib yetadigan modernizatsiyalashni amalga oshirish SHarqiy Osiyo mamlakatlarida muvaffaqiyatli sodir bo'lgan. Koreya Respublikasi, Tayvan, Xitoy iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etmoqdalar. Ushbu mamlakatlar muvaffaqiyatining muhim sabablaridan biri shundaki, ular o'zlarining asosiy kuchlarini xorijiy mamlakatlar tajriba va yondashuvlarini ko'r-ko'rona ko'chirib olishga emas, balki o'z iqtisodiyotining taraqqiy etgan mamlakatlar xo'jaligiga tabiiy qo'shilishiga e'tibor qaratdilar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida YAponiya, Koreya Respublikasi va Tayvan milliy kapitalning rivojlanishida xorijiy kapitalni jalb etishga nisbatan ustuvorlik berdilar. Ushbu mamlakatlarda davlat mablag'lari hisobiga korxonalar qurildi va xususiy kompaniyalarga berildi. Koreya Respublikasida markazlashuv darajasi yuqori bo'lib, 1961 yilda bank tizimi milliy lashtirildi. Koreya YAponiyadan farqli o'laroq, ustuvor tarmoqlarni belgilab oldi va ularga davlat yordamini ko'rsatdi.

Koreya iqtisodiyotini modernizatsiyalashda ishlab chiqarilgan mahsulot milliy ichki bozor katta bo'lmagani uchun eksportga yo'naltirildi. eksport davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlandi. YAponiya urushdan keyin kichik va o'rta korxonalarini modernizatsiyalashga ustuvorlik bergan bo'lsa, Koreya mamlakat resurslari oz bo'lganligi uchun yirik kompaniyalar va moliya guruhlarini (chebollar) qo'llab-quvvatlashga asosiy urg'u berdi.

YUqoridagilarni umumlashtirgan holda SHarqiy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun xos quyidagi belgilarni ajratish mumkin:

- YAponiya, Koreya Respublikasi, Tayvanda iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida yer islohoti yotdi;

- rivojlangan moliya (bank) tizimining yaratilganligi. Ushbu mamlakatlarda shakllangan moliya-sanoat guruhlarini tarkibiga qonun yo'li bilan tijorat banklari kiritilmadi va ular xususiylashtirildi;

- rejalashtirish va tabiiy bozor rivojlanishining natijasi bo'lgan o'ziga xos sanoat siyosati amalga oshirildi.

O'tish mamlakatlari iqtisodiyotini modernizatsiyalashda Xitoy tajribasi e'tiborga moliqdir. Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash quyidagi tamoyillarga asoslandi[]:

Davlat tasarrufidagi korxonalarini saqlab qolish va yuqori texnologik taraqqiyotni belgilovchi yangi korxonalarini tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatlash. Masalan, Xitoyda 1997-2008 yillarda an'anaviy tarmoqlar hisoblangan neft qazib chiqarish 27%, po'lat eritish 3,3 marta o'sgan holda, ilg'or, fan sig'imdorligi yuqori bo'lgan tarmoqlar bo'lmish avtomobillar — 9,1 marta, kompyuterlar va orgtexnika - 13,8 marta, mobil telefonlar ishlab chiqarish 23 martaga ko'paydi.

Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyani jalb etishga asoslangan. 2008 yilga kelib mamlakatda jamlangan (Gonkongni qo'shib hisoblaganda) TTXI hajmi 964 mlrd. dollarga yetdi. Mamlakatda yaratilgan 132 ta yirik sanoat kompaniyalarining ishlab chiqarish quvvatlari jahondagi 200 ta eng katta transmilliy sanoat kompaniyalari tarkibiga kirib, ularning hissasiga yilda sanoat ishlab chiqarishning 30,9% i to'g'ri keldi.

Xitoyliklar G'arb texnologiyasini o'rganib, mamlakatda innovatsion nusxa ko'chirishning strategiyasini amalga oshirdilar. Mamlakatda elektrotexnika mahsulotlari, uskunalari va avtomobillar ishlab chiqaruvchi G'arb korxonalarini paydo bo'lganidan 3- 5 yil o'tib xuddi shunday tovarlar ishlab chiqaruvchi xitoy korxonalarini vujudga keldi.

Mamlakatda o'z tovarlarini jahon bozoriga olib chiqishni qo'llab-quvvatlash orqali modernizatsiya samaradorligi oshirildi. Oxirgi 10 yil mobaynida Xitoyda sanoat mahsulotlari eksporti 7,4 marta o'sdi. Ushbu

maqsadga erishish uchun hamma narsa, shu jumladan, ichki va tashqi siyosat mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotni eksportga yo'naltirishni qo'llab-quvvatlashga qaratildi. eksportyorlarni kreditlash mexanizmi yaratildi.

Davlat iqtisodiyot bilan birga institut sifatida ham o'zini modernizatsiyalashtirdi. Boshqaruv apparatida ishlovchilar malakasi, kasbiy mahorati tubdan yangilandi, korrupsiya va poraxo'rlikda ayblangan ko'plab davlat xizmatchilari jazolandi va iste'foga chiqarildi.

Xitoydagi iqtisodiy mo''jiza sababi esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yillarida investitsiya normasi va eksportning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, kuchli proteksionizm siyosatini amalga oshirish bilan bog'liqsir.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarning ayrimlarida modernizatsiyalash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish alohida qiziqish uyg'otadi[]. 2009 yilda Rossiyada milliy elita tomonidan modernizatsiyalash ideologiyasi ishlab chiqildi.

Rossiya iqtisodiyotini modernizatsiyalash ikki muhim komponentni o'z ichiga oladi: a) mamlakat ichida innovatsion va texnologik kashfiyotlar, yangiliklarni yaratish; b) iqtisodiyotning real sektorida foydalanish uchun yuqori texnologiya va uskunalarni samarali import qilish. Mamlakatda innovatsion faoliyat rivojlana borgan sari innovatsiyani import qilishdan ichki ishlab chiqarishga o'tish kerak. Texnologiyaning yirik iste'molchisidan, texnologiya sotiladigan bozordan jahon bozoriga global yuqori texnologiya yetkazib beruvchi mamlakatga aylanish zarur.

Rossiya hukumatining fikricha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash g'oyasi quyidagi besh ustuvor yo'nalishlarga ega:

samarali yoqilg'i va yangi turdagi yoqilg'ini ishlab chiqarish;

meditsina texnologiyalari va farmatsevtika;

yadro energetikasi;

informatsion texnologiya;

kosmos va telekommunikatsiya.

Rossiyani modernizatsiyalash - bu mamlakatni yangi industrlashtirishdan iborat bo'lib, asosiy fondlarni tubdan yangilash, xarajatlarni optimallashtirish, zamonaviy texnologiya va boshqaruvni faol joriy etish asosida uni dunyodagi eng yirik sanoat mahsulotini eksport qiluvchi 10 ta mamlakat qatoriga qo'shishni ta'minlashdan iboratdir. Modernizatsiyalash muvafaqqiyatini belgilab beruvchi ko'rsatkich sifatida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik darajasi xizmat qilishi lozim. SHunday qilib, mamlakatning istiqboldagi rivojlanish strategiyasi innovatsion rivojlanish va modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi.

Iqtisodiyotga yangiliklarni joriy etish, fan sig'indorligi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda muvafaqqiyatga erishgan mamlakatlar tajribasini tahlil etish innovatsion rivojlanish strategiyasining quyidagi turlarini ajratish imkonini beradi.

Ko'chirib o'tkazish strategiyasi — mavjud xorijiy ilmiy-gsxnik salohiyatdan foydalanish va ushbu sohadagi yangiliklarni iqtisodiyotga ko'chirib o'tkazish bilan bog'liq strategiya. Ushbu sstrategiya birinchi navbatda YAponiya tomonidan Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'llanilgan.

O'zlashtirish strategiyasining mazmuni shundan iboratki, unda mamlakat arzon ishchi kuchi va yo'qotilayotgan ilmiy-texnik salohiyatining bir qismidan foydalangan holda taraqqiy etgan mamlakatlarda avval ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi. Keyinchalik mamlakat mustaqil ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish imkonini beruvchi ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantiradi hamda faol innovatsion faoliyatni ta'minlaydi. Ushbu strategiya Xitoy va Janubi-SHarqiy Osiyoning qator mamlakatlarida qabul qilingan.

YAratish strategiyasi — taraqqiy etgan mamlakatlar, avvalombor, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiyada qo'llaniladi. Ushbu strategiya mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatidan foydalanish, xorijlik olimlar va konstruktorlarni jalb etish, universitetlarning fundamental fanlari va firmalarning amaliy fanlarini integratsiyalashtirish orqali muntazam ravishda yangi

mahsulotlar, yuqori texnologiyalar yaratishni ko'zda tutadi. Yaratilgan mahsulotlar va yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish hamda ijtimoiy sohaga joriy etiladi, ya'ni muntazam ravishda innovatsiyalar yaratib, rivojlantirilib boriladi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida modernizatsiya o'zgarishlari quyidagi muammolarni hal etishni ta'minlaydi:

iqtisodiyot tarkibini chuqur yangilash;

aholi turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilash;

mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimoti va jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallash.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirishda quyidagi xarakterli xatolarga yo'l qo'ymaslik lozim:

- «tiklash» va «omon qolish»ga urg'u bermaslik;

- bozor va demokratiyani ijtimoiy adolatga nisbatan qarama-qarshi qo'ymaslik;

- davlat va bozorni bir-biriga nisbatan qarama-qarshi qo'ymaslik;

- jamiyatning alohida bitta ijtimoiy guruhiga (kambag'allar, tadbirkorlar va boshqalar) ustuvor e'tibor bermaslik;

- iqtisodiy siyosatni milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlari bilan bog'liq ravishda shakllanmaslik.

Modernizatsiya dasturi mamlakatning jahondagi iqtisodiy va siyosiy mavqeini tiklash, islohotlarning ijtimoiy xarajatlarini minimallashtirish va moliyaviy inqiroz xavfini pasaytirish imkonini beradi.

Modernizatsiyalash siyosati muvaffaqiyatining muhim sharti bozor va demokratik institutlarning shakllanishi hisoblanadi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, modernizatsiyalashga ikki yo'l bilan erishish mumkin. Birinchisi — bu davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi yuqori vakolatining tiklanishi, milliy iqtisodiyotni xorijiy raqobatdan himoya qilish va iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarida resurslarni jamlash. Ikkinchisi — bu bozor mexanizmlarining har tomonlama rivojlanishi va bozor

iqtisodiyotiga mos davlatni shakllantirish maqsadida mamlakat iqtisodiyotini jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, hozirgi sharoitda faqatgina bozor mexanizmlari modernizatsiyani amalga oshirishi mumkin, u yuqoridan buyruq orqali kiritilmaydi, chunki modernizatsiyalash ustun darajada iqtisodiy sub'ektlar innovatsiya faoliyatining natijasi hisoblanadi. Ushbu holatni jahonning turli mamlakatlarida «iqtisodiy erkinlik indeksleri» yordamida amalga oshiriladigan maxsus tahlillar tasdikdaydi. Ushbu indekslar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish darajasini xarakterlaydi va tadbirkorlarga tushayotgan soliq yukining umumlashgan qo'rsatkichlari, ichki bozorni xorijiy raqobatdan proteksionistik himoya qilish indikatorlarini ifodalaydi. Aksariyat hollarda iqtisodiy erkinlik indeksleri yuqori bo'lgan mamlakatlar yuqori iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga erishadilar.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning quyidagi vazifalari ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi:

- mamlakatda tom ma'nodagi raqobat muhitini shakllantirish. Ma'lumki, bunday muhit ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish, jahon bozorlariga chiqish yo'lida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi;

- ishbilarmonlik – biznes yuritish uchun amaliy qulay sharoit tug'dirib berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

- elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish. 2013 yil yakuni bo'yicha, mamlakatimizda 10 milliondan ziyod plastik kartochka muomalaga chiqarilgan bo'lib, ularning qariyb 2 million 500 mingtasi onlayn kartochkalardir. Bugungi kunda telekommunikatsiya va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni Internet orqali to'lash imkoniyati mavjud;

- ijtimoiy sohani rivojlantirish, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi

bandligi, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari va sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish.

1.2.Moliyaviy siyosatning mohiyati, funksiyalari va mexanizmlari.

Siyosatning asl ma'nosi grekcha "Politika" so'zidan olingan bo'lib, davlatni boshqarish san'atidir.

Har qanday jamiyatda ham davlat sub'ekt sifatida o'ziga yuklatilgan burch, vazifa va funksiyalarni bajarishda moliyadan foydalanadi. Ushbularni hayotda amalga oshirish jarayonida moliyaviy siyosat yetakchi o'rinni egallaydi.

Siyosat - bu ustqurmaga taalluqli tushuncha bo'lib davlatning o'z funksiyalarini va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan hamma yo'nalishlar, chora va tadbirlar yig'indisidir. Ijtimoiy munosabatlari sohalariga bog'liq holda va uni siyosiy ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekti deb qaraganimizda - iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy yoki texnik, moliya yoki kredit, ichki yoki tashqi siyosatlar to'g'risida fikr yuritimiz.

Siyosat, siyosiy ta'sir, siyosiy boshqarish uch muhim elementlardan iborat bo'ladi:

Birinchidan, jamiyatning hayotini yaxshilash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalar va maqsadlar aniqlanadi va belgilanadi;

Ikkinchidan, shu aniqlangan bo'lajak va yaqin kelajakdagi vazifalar va maqsadlarga erishish uchun eng qulay, eng yaxshi natija beradigan zarur bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;

Uchinchidan, shu aniqlangan va belgilangan vazifalarni tashkil etib bajara oladigan kadrlarni topib joy-joyiga qo'yishdir.

Iqtisodiy siyosat - xo'jalik yuritishning tamoyillari va shakllari, iqtisodiyotni rivojlantirish vazifalarini yechishdagi usullar, chora-tadbirlar va faoliyatlar yig'indisidir. Iqtisodiy siyosat jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Iqtisodiy siyosat o'z ichiga:

- baho siyosati;
- pul siyosati;
- kredit siyosati;
- amortizatsiya siyosati;
- moliya siyosati kabilarni oladi.

Iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, uning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvi moliyaning iqtisodiy kategoriya sifatidagi ahamiyatini oshirmoqda. Natijada iqtisodiyotni to'xtovsiz harakatini ta'minlovchi, uning boshqaruvini nazorat qiluvchi, yarattgan milliy boyligni taqsimlovchi vosita bo'lgan moliya alohida e'tibor va yondashuv talab qilmoqda. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlagan hamda moliyaviy barqarorlikka erishgan islohotlarning hozirgi davrida davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash, mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash muhim strategik vazifa hisoblanadi".

Moliya barqaror tovar-pul muomalasi sharoitida davlatning rivojlanishi va uning resurslarga bo'lgan ehtiyojlari ning ortishi natijasida paydo bo'ldi.

Moliyaning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ular qamraydigan tovar-pul munosabatlari sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidash jamiyatning iqtisodiy tuzumi davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanadi.

Moliya-davlatning funktsiya va vazifalarini amalga oshirish va kengaytirilgan ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash maqsadlarida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan maqsadli pul mablag'lari jamg'armalarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo

bo'ladigan iqqisodiy munosabatlardir.

Markazlashtirilgan moliya deganda davlat byudjeti tizimida hukumatning byudjetdan tashqari jamg'armalarida jamlanadigan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish va ishlatish bilan bog'liq iqqisodiy munosabatlar, markazlashtirilmagan moliya deganda korxonalar pul jamg'armalari aylanishiga vosita bo'lib xizmat qiladigan pul munosabatlari tushuniladi. Moliya-pul bilan bog'liq munosabatlarning ajralmas qismidir. SHu sababli ularning o'rnini va ahamiyati pul munosabatlari iqtisodiy munosabatlarda qanday o'rin tutishiga bog'liq. Ammo har qanday pul munosabatlari ham moliyaviy munosabatlarni ifoda etmaydi.

YUqorida keltirilgan ta'rif moliyaning davlat moliyasi sifatidagi talqinini o'zida ifoda etgan bo'lsa, hozirda zamonaviy iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaning iqtisodiyotning turli jabhalaridagi ahamiyati e'tiborga olingan holda, "moliya – iqtisodiyot sub'ektlarining daromad va xarajat borasidagi iqtisodiy munosabatlaridir",³ degan talqin ilgari surilmoqda. Fikrimizcha, ushbu ta'rif moliyaning mohiyatini ochib berishda va o'quvchilarning keng ommasiga tushuntirishda katga ahamiyatga ega.

Moliya ham mazmuniga ko'ra, ham bajaradigan funksiyalariga ko'ra puldan farq qiladi.

Pul- birinchi navbatda uyushgan ishlab chiqaruvchilarning mehnat sarflari hisob qilinadigan umumiy ekvivalent, moliya esa yalpi ichki mahsulot(YAIM) ni, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy vositasi, pul mablag'lari jamg'armalarini hosil etish va ishlatish ustidan nazorat qurolidir. Uning vazifalaridan eng asosiysi pul daromadlari va jamg'armalarini hosil qilish yo'li bilan nafaqat davlat va korxonalarining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini, balki moliya resurslarining sarflanishini ham nazorat qilishdan iborat.

Moliya quyidagi hollarda yuzaga keladigan pul munosabatlarini ifoda etadi:

- korxonalar o'rtasida tovar-moddiy boyliklarni sotib olish, mahsulot va xizmatlarni sotish jarayonlarida;

- korxonalar va yuqori tashkilotlar o'rtasida markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini hosil qilish va taqsimlashda;

- davlat va korxonalar o'rtasida ularning byudjet tizimiga soliqlar to'lash va xarajatlarni pul bilan ta'minlashda;

- davlat bilan fuqarolar o'rtasida soliqlarni va ixtiyoriy to'lovlarni to'lashda;

- korxonalar, fuqarolar va byudjetdan tashqari jamg'armalar o'rtasida to'lovlarni to'lash va resurslarni olishda;

- mulkiy va shaxsiy sug'urta organ lari, korxonalar, aqoli o'rtasida sug'urta badallarini to'lash va sug'urta hodisasi yuz berganda ko'rilgan zararni qoplashda;

- korxonalar jamg'armalari doiraviy aylanishiga vosita bo'ladigan pul munosabatlarida.

Pul daromadlari va jamg'armalarining asosiy moddiy manbai mamlakatning milliy daromadi, yangidan yaratilgan qiymat yoki ishlab chiqarish jarayonida iste'mol etilgan qurollar va ishlab chiqarish vositalari chegirilgan yalpi ichki mahsulot qiymatidir. Milliy daromad hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini belgilaydi. Xuddi shu milliy daromadning miqtsorini va uning alohida qismlari - iste'mol jamg'armasi va jamg'arma fondi hajmlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish proportsiyalari va uning tuzilmasi belgilanadi. Moliya ishtirokisiz milliy daromadni taqsimlab bo'lmaydi. Moliya — milliy daromadni hosil qilish va uni ishlatish o'rtasidagi zaruriy bog'lovchi bo'g'in bo'lib, ishlab chiqarishga, taqsimot va iste'molga ta'sir ko'rsatgan holda ob'ektiv xarakter kasb etadi. Moliya ishlab chiqarish munosabatlarining muayyan sohasini ifoda etadi va bazis kategoriya hisoblanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiyoti davlat moliyasisiz mavjud bo'la olmaydi. Tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida jamiyatning bir qator ehtiyojlari

faqat davlat tomonidan moliyalanishi mumkin. Bular — atom sanoati, kosmik tadqiqotlar, iqqisodiyotning ayrim, yangi ustuvor tarmoqlari, shuningdek, hamma uchun birdek zarur bo'lgan korxonalar (pochta, telegraf va boshqalar).

Moliya ishlab chiqaruvchi kuchlarning muayyan mamlakatdagi rivojlanish darajasini va xo'jalik hayotidagi makro iqqisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini aks ettiradi.

Mamlakat iqtisodiyoti ahvoli moliyaning holati bilan belgilanadi. Barqaror iqtisodiy o'sish, YAIM va milliy daromadning ortishi sharoitlarida moliya turg'unligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Moliya ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga va mamlakat fuqarolari turmush sifatini oshirishga rag'bat beradi. Iqtisodiy inqirozlar, ishlab chiqarishning pasayib ketishi, ishsizlikning o'sishi sharoitlarida esa moliyaning ahvoli g'oyat mushkullashadi. Bu esa ichki va tashqi davlat qarzlari va qo'shimcha pul bosib chiqarish hisobiga moliyalanadigan yirik byudjet taqchilligini keltirib chiqaradi. Natijada, davlat qarzlari va uning xarajatlari yanada ko'payadi. Bularning barchasi inflyatsiyaning avj olishiga, xo'jalik aloqalarining buzilishiga, o'zaro qarzdorlikning ortishiga, pul o'rnida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning paydo bo'lishiga, barter aloqalarining kuchayishiga, davlat xarajatlarini o'z vaqqida moliyalashtirish imkoniyatlarini yo'qotishga olib keladi. Oxir-oqibat, aholi keng qatlamlarining turmush darajasi pasayib ketadi. SHu sababli iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda ishlab chiqarishning real sohasidagi ahvol hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'z moddiy mazmuniga ko'ra moliya jamlanma holda mamlakatning moliyaviy resurslaridan iborat bo'lgan pul mablag'larining maqsadli jamg'armalaridir.

Moliyaviy resurslar o'sishining asosi milliy daromadning ko'payishi bo'lib, moliyaviy resurslarning o'zi moliyaning mohiyatini belgilamaydi, ularning ichki mazmuni va ijtimoiy maqsadlarini ochib bermaydi. Moliya fani resurslarning o'zinigina emas, balki resurslarni hosil qilish, taqsimlash va ishlatish negizida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etadi, bu fan

moliyaviy munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, kashf etadi. Garchi moliya bazis kategoriyaga taalluqli bo'lsa-da, u ko'p jihatdan hukumatlar olib boradigan moliya siyosatiga bog'liq.

Moliya, birinchi navbatda, taqsimot kategoriyasi bo'lib, uning yordamida milliy daromadning ikkilamchi taqsimoti yoki qayta taqsimoti amalga oshiriladi. Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati - davlat kimning hisobiga moliyaviy resurslarni o'z qo'lida to'playdi va bu mablag'larni kimlarning manfaatlari uchun ishlatadi, degan masalani tadqiq etishdan iborat.

Moliyaning mohiyati uning vazifalari orqali oydinlashadi. Moliya asosan ikki vazifa (funktsiya) ni bajaradi: taqsimlash va nazorat. Moliya bu vazifalarni ayni bir paytda bajaradi. Har bir moliya operatsiyasi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlashni va bu taqsimot nazorat qilinishini bildiradi.

Taqsimot funksiyasi milliy daromadni taqsimlashda, asosiy yoki dastlabki, boshlang'ich daromadlar yaratilganda yuz beradi. Ularning summasi milliy daromadga teng bo'lib, asosiy daromadlar milliy daromadni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishida shakllanadi. Ular ikki guruhga bo'linadi: 1) ishchi, xizmatchilarning ish haqi, moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan fermerlar, dehqonlarning daromadlari; 2) moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarining daromadlari. Ammo dastlabki daromadlar milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lgan ijtimoiy pul jamg'armalarini hosil qilmaydi. SHu sababli milliy daromadni yana taqsimlash yoki qayta taqsimlash zarurati paydo bo'ladi. Bu esa quyidagilar bilan bog'liq:

- korxonalar va tashkilotlarning daromadlari hamda jamg'armalaridan samarali, oqilona foydalanish maqsadida mablag'larni tarmoqlararo, hududiy qayta taqsimlanishi;

- milliy daromad yaratilmaydigan tarmoqlar (maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, boshqaruv) ning mavjudligi;

- daromadlarning aholining turli ijtimoiy qatlamlari o'rt asmda qayta taqsimlanishi.

Milliy daromadni va yalpi ichki mahsulotni moliya yordamida taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, iqtisodiyotda bozor tuzilmalarini yaratish, davlatni mustahkamlash, keng aholi ommasining turmush darajasini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdan iborat. Bunda moliya korxonasi va tashkilotlar xodimlari va jamoalarining moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilash, kam xarajatlar bilan yuqori natijalarga erishishdan moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida moliya barqarorlashtirish funksiyasini ham bajarishi lozim. Uning mazmuni shundaki, jami xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarga iqtisodiy va ijtimoiy jihatlaridan barqaror sharoitlarga o'tkazilishi zarur. Bunda, ayniqsa, moliyaga oid qonunlarning barqarorligi to'g'risidagi masala alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday barqarorlik bo'lmasa, ishlab chiqarish sohasida xususiy investorlar tomonidan investitsiya siyosatini amalga oshirish mumkin emas. O'zbekiston hukumati barqarorlikka erishish masalasiga ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim sharti sifatida qaraydi.

Moliya o'z funksiyalarini moliyaviy mexanizm orqali amalga oshiradi. Bu mexanizm milliy iqtisodiyotdagi jami moliyaviy munosabatlarning tashkiliy shakllarini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish va ishlatish tartibini, moliyaviy rejalashtirish usullarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliya qonunchiligini o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish sharoitida sifat jihatidan yangi moliyaviy mexanizm qo'llaniladi. Bu korxonalar va aholining byudjet tizimi, byudjetdan tashqari jamg'armalar, mulkiy va shaxsiy sug'urta organlari bilan o'zaro munosabatlariga taalluqli. Byudjet mexanizmining muhim unsuri, birinchi navbatda, byudjet rejalashtirishiga aloqador bo'lgan moliyaviy oqimlardir.

Moliya siyosati - davlat umumiy iqtisodiy siyosatining muhim tarki- biy qismi bo'lib, davlat faoliyatini ta'minlash, mamlakat farovonligini oshirish maqsadlarida moliya tizimini tashkil etish, moliyaviy resurs- larni safarbar etish va ulardan foydalanish, davlat oldida turgan ichki va tashqi siyosat vazifalarini bajarish bo'yicha amalga oshiriladigan barcha davlat tadbirlarini o'z ichiga oladi. Barcha davrlarda ham boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda moliyaviy munosabatlarning mavjud bo'lishini zaruratga aylantiradigan narsa bu - takror hosil qilish jarayonlari va birinchi navbatda, ishlab chiqaruvchi kuchlarni takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash masalasidir. CHunki bu narsa har bir kishining, umuman, jamiyatning hayoti, borlig'i, rivojlanishining zarur sharti hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayoni turli ijtimoiy ehtiyojlar majmuidan iborat, ularning qondirilish darajasi, birinchi navbatda, moliyaviy imkoniyatlarga, ya'ni mavjud moliyaviy resurslarga va davlatning moliyaviy potentsialiga bog'- liq. SHu sababli, moliyaviy munosabatlarning ikkinchi va ajralmas maq- sadi - ijtimoiy boylikning o'sishini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadga faqat davlat moliyaviy resurslari va moliyaviy potentsialining taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish shakllari samarali bo'lgandagina erishish mumkin.

Moliyaviy siyosatning mazmuni aniq bir maqsadga qaratilganligi va samaraliligi - ijtimoiy tizimning xarakteri, mulk munosabatlari bilan aniqlanadi.

Moliya siyosatining muhim vazifasi - u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Lekin moliyaviy siyosatni faqat iqtisodiy siyosatga bog'lash mumkin emas.

Moliyaviy mexanizm samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi - jamiyat farovonligini oshirishning asosiy manbai bo'lgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'sish suratlari hisoblanadi.

Moliya siyosati - davlatning moliyaviy munosabatlar bo'yicha mustaqil faoliyat sohasi bo'lib, bu faoliyat tegishli, mavjud moliyaviy resurslar bilan mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muayyan davlat

dasturlarini amalga oshirishga qaratiladi.

Moliya siyosati mustaqil ma'noga ega, ammo ayni paytda, ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida, bu iqtisodiyot bo'ladimi, ijtimoiy soha yoki harbiy islohotlar bo'ladimi, xalqaro munosabatlar bo'ladimi -baribir, davlat siyosatini amalga oshirish, ro'yobga chiqarishda eng muhim vositadir.

Moliya siyosati imkon qadar ko'proq ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini, jamiyatdagi barcha qatlamlar va guruhlar manfaatlarini, real tarixiy sharoitlarni va turmushning o'ziga xos tomonlarini hisobga olsa, uning natijadorligi shu qadar yuqori bo'ladi. Bu siyosatning muvaffaqiyatida jamiyatdagi turli qatlamlar manfaatlarini va davlatning mavjud imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, amalga oshirish mexanizmini puxta ishlab chiqishning o'rnini ham juda beqiyos.

Moliyaviy siyosatning samaradorligini belgilash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilganligi, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar amalga oshirilganligi baholanishi lozim.

Moliyaviy siyosatga baho berish va unga tuzatish, qo'shimchalar kiritish uchun birinchi navbatda jamiyat ehtiyojini qondira oladigan holdagi ijtimoiy taraqqiyot rejasini aniq bilish zarur. U rejada bo'lajak va yaqin kelajakda amalga oshirish vaqtlari belgilangan chora-tadbirlar bo'lishi lozim. Faqat shundagina moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va muvaffaqiyatli amalga oshirish va ob'ektiv baholash mumkin.

Moliyaviy siyosatni asosiy yo'nalishlaridan biri - moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyliги va uzluksizligini ta'minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potentsiali barcha o'zgarishlarning moddiy bazasidir. SHuning uchun moliyaviy siyosatni aniqlash va uning strategik va taktik asoslarini ishlab chiqish uchun davlatning moliyaviy ahvoli, moliyaviy potentsiali, boshqacha qilib aytganda davlatning moliyaviy imkoniyatining ob'ektivligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish lozim. Huquqiy demokratik davlatda statistik moliyaviy ko'rsatkichlar ijtimoiy mulki bo'lishi

kerak. SHuningdek, moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan muntazam ravishda qonun doirasida o'z vaqtida tanishib chiqishga imkoniyat yaratilishi lozim.

Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash negizida quyidagilarni tanlash turadi:

- moliyaviy resurslar egalarini va ularni taqsimlovchilarni;
- moliyaviy resurslardan foydalanishda ustivor yo'nalishlarini;
- moliyaviy resurslarni tashkil etish uchun manbalar va mablag'larni jalb etish usullarini;
- davlat qo'lida moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasini.

Bu masalalar davlatning hayot mazmuniga va funktsiyalariga bog'liq holda yechiladi va amalga oshiriladi.

Moliyaviy siyosatni mazmuni ko'p qirrali bo'lib, quyidagi muhim bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

a) moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan kontsepsiyalarini ishlab chiqish.

Bu kontsepsiyalar quyidagilarni o'rganish asosida ishlab chiqiladi:

- iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish;
- xo'jalik ahvolini har tomonlama tahlil qilish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini o'rganish;
- aholining talab va ehtiyojlarini o'rganish.

b) istiqbolda va joriy davr mobaynida moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish; shu tarzda iqtisodiy siyosatda ko'zda tutilgan belgilangan maqsadlarga yetish yo'llaridan kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

v) qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy hatti-harakatlar, chora-tadbirlar ko'rish.

Yuqoridagi asosiy bo'g'inlarning birligi moliyaviy siyosatning mazmunini aniqlab beradi.

Faqat hozirgi kundagi joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan moliyaviy siyosat samarasizdir. SHuningdek, uzoq davrga mo'ljallangan, istiqbolni ko'zlab ishlab chiqilgan kontseptsiyalar va yo'nalishlar, ular qanchalik olijanob, jozibali bo'lmasin, davlatning amaliy harakatlari, chora-tadbirlari bilan ta'minlanmasa, inqirozga duchor bo'ladi.

Hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrining uzoqligiga qarab, moliyaviy siyosat:

1. Moliyaviy strategiya.
2. Moliyaviy taktikaga bo'linadi.

Moliyaviy strategiya deb korxonani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun va ushbu mablag'lardan samarali foydalanish uchun tuzilgan uzoq muddatli rejaga - aytiladi. Korxonaning moliyaviy strategiyasi o'z ichiga korxonaning moliyaviy ahvolidan tahlilini asosiy va aylanma mablag'larini optimallashtirish, daromadni taqsimlash, naqd pulsiz to'lovlarni, soliq va baho siyosatini, qimmatli qog'ozlar jarayonidagi siyosatni oladi.

Moliyaviy strategiya korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini, ichki va tashqi omillarning xolisona xususiyatini har tomonlama e'tiborga oladi. Agar moliya strategiyasi korxonani resurslar bozorida mavjud bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlariga javob bermasa u muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin, yoki korxonani bankrot bo'lishi mumkin.

Moliya strategiyasi vazifalarining ko'lamini va davriyligiga ko'ra asosiy va operativ bo'lishi mumkin.

Asosiy moliyaviy strategiya deb, korxonani faoliyatini aniqlovchi byudjetning hamma darajasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarga, korxonaning daromadlarini tashkil etib uni sarflashga, ehtiyojlik miqdorini va bir yilda moliyalashtirish manbalariga aytiladi.

Operativ moliyaviy strategiyaning asosiy moliyaviy strategiyadan farqi, u o'z ichiga yalpi daromadlarni va mablag'larning ko'payishini (ish haqi, sotilgan

mahsulot uchun sotib oluvchilar bilan hisob-kitob qilish, kredit operatsiyalaridan tushumlar) va hamma yalpi xarajatlarini (ta'minlovchilar bilan hisob-kitob, ish haqi, hamma darajadagi byudjetlar va banklar bilan majburiyatlarini uzmoq) oladi.

Moliyaviy strategiya - ijtimoiy va iqtisodiy strategiyani belgilab bergan uzoq istiqbolga mo'ljallangan va yirik ko'lamdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u moliya rivojlanishining asosiy kontseptsiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillarini belgilashni ko'zda tutadi. Moliyaviy strategiya uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarida mujassamlashtiradi va ko'zda tutadi.

Moliyaviy taktika - strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

Rivojlanishning har bir bosqichining moliyaviy strategiyasi ob'ektiv iqtisodiy sharoitni hisobga oluvchi iqtisodiy strategiyaning vazifalari bilan belgilanadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazishning dastlabki bosqichida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy strategik maqsadlari quyidagicha belgilanadi:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish;
2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish: xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;
3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvda huquqiy asoslar va vositalardan foydalanish;
4. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shib borish.

Mazkur iqtisodiy strategik vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarda moliyaviy taktika ishlab chiqiladi va tegishli moliya mexanizmi shakllantiriladi:

- qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish, davlat byudjeti taqchilligini iloji boricha kamaytirish, dotatsiya va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirib borish;

- byudjetdan mablag'larni eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina ajratish;

- investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;

- soliq tizimini takomillashtirish, byudjet daromadlarini barqaror bo'lib turishini ta'minlaydigan mustahkam soliq siyosatini olib borish va h. k.

Moliyaviy siyosatning strategiyasi va taktikasi o'zaro bog'liqdir. Taktik vazifalarni hal qilish uchun strategiya qulay shart-sharoit yaratadi.

Taktika esa, iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi rivojlanishning hal qiluvchi joylarini va muhim muammolarni aniqlab moliyaviy bog'liqliklarni tashkil etish shakllari va usullarini o'z vaqtida o'zgartirish yo'li bilan strategiya belgilab bergan vazifalarni qisqa muddat ichida, eng kam xarajatlar bilan amalga oshiradi.

Moliyaviy siyosat inson faoliyatining maxsus shakli sifatida ustqurma kategoriyalariga taalluqlidir. U bilan jamiyatning iqtisodiy bazisi orasida chambarchas bog'langan o'zaro bog'liqlik mavjuddir. Bir tomondan, moliyaviy siyosat iqtisodiy munosabatlar orqali vujudga keladi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy bazis asosida vujudga kelib va rivojlanib, moliyaviy siyosat ma'lum bir mustaqillikka ega. SHuning uchun u iqtisodga, moliyaning ahvoriga teskari ta'sirini o'tkazadi. Bu ta'sir har xil bo'lishi mumkin: bir xil paytlarda siyosiy chora-tadbirlarni o'tkazish orqali iqtisodni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratiladi, boshqalarda esa u to'sqinlik qiladi.

Moliyaviy siyosat moliyaviy munosabatlar mohiyatini o'zgartirolmaydi. Lekin, davlat moliyaning mohiyatini bilib, uni o'z manfaatlariga qaratishga xarakat qiladi.

Moliyaviy munosabatlar - ob'ektiv voqelik, iqtisodiy munosabatining bir qismi bo'lib, jamiyatning iqtisodiy bazisini tashkil qiladi. Moliyaviy siyosat esa bazisga asoslanadi, shu bazisdan kelib chiqadi. Moliyaviy siyosat ilmiy asoslangan

moliyaviy nazariyaga tayanadi va tajribaga ko'rsatma beradi, shu tariqa moliyaviy siyosat nazariyani tajriba bilan boglaydi. Tajriba esa nazariyaning to'g'riligini tekshirish mezonidir.

Birinchiidan, moliyaviy resurslarning hajmini va ulardan foydalanshi samaradorlshini oshirish. Moliyaviy siyosat ko'zda tutayotgan tadbirlarni, ular bilan botliq bo'lgan xarajatlarni real mavjud bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishiga erishishi kerak. SHuningdek, ajratilayotgan har bir so'mlik resursdan maksimal darajada samaraga erishishni ta'minlash lozim;

ikkinchiidan, moliyaviy resurslarning tatssimotida optimal nisbatlarni belgilash, ulardan ratsional foydalanish. Moliyaviy siyosatning bu vazifasi korxonada daromadlarining davlat ixtiyoriga o'tishining ratsional shakllarini belgilash, aholining davlat daromadlarini shakllantirishdagi hissasini to'g'ri belgilash, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi taqsimlash proporsiyalarini optimallashtirish yo'llari bilan bajariladi;

uchinchiidan, muhim va murakkab vazifasi, tegishli moliya mexanizmini ishlab chiqish, iqtisodiy siyosat belgilab bergan rivojlanish yo'nalishlarini ta'minlash maqsadida uni takomillashtirish.

Moliya siyosati, birinchi navbatda, imkon qadar ko'proq moliyaviy resurslar hajmini yaratishga yo'naltirilishi lozim, chunki shu resurslar har qanday o'zgartirish, yaratishning moddiy bazasidir. Demak, moliya siyosatini belgilash va shakllantirish uchun davlatning moliyaviy ahvoli to'g'risida aniq, ishonchli axborot zarur. Huquqiy demokratik davlatda moliya statistikasi keng jamoatchilikka ma'lum bo'lishi lozim. SHuningdek, moliyaviy hisobotlar ham muntazam, o'z muddatida va ochiq, eng muhimi - shubhasiz aniq bo'lishi kerak.

Moliya siyosatini ishlab chiqishda eng muhimi - moliyaviy resurslar taqsimoti va qayta taqsimoti asosini quyidagilar tashkil etishi lozim:

- taqsimot munosabatlari sub'ektlarini, ya'ni moliyaviy resurslar egalari va taqsimotchilarini tanlash;

- davlat bajaradigan funktsiyalarga va o'z ehtiyojlarini qondirishda yuridik shaxslar va aholining mustaqilligi darajasiga qarab moliyaviy resurslarni davlat

tasarrufida markazlashtirish darajasini belgilash;

- birinchi darajadagi ijtimoiy ehtiyojlarni va ularni qondirish chora-tadbirlarini va shunga mos holda moliya resurslarini ishlatishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- moliyaviy resurslar manbalari va ularni shakllantirish usullarini tanlash.

Davlat moliya siyosati - ko'p qirrali tushuncha. Umuman olganda, uning ko'lamini davlatning iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani boshqarishda ishti- roki parametrlari bilan belgilanadi. Moliya siyosati jamiyat taraqqiyo- tining ayrim tarixiy bosqichlarida hukmron bo'lgan nazariy qarashlarga tayanadi, uning qiymat munosabatlari unsurlariga ajralishi moliya ti- zimining rivojlanganligi va ayrim bo'g'inlarining mustaqillik daraja- siga bog'liq.

Xalqaro moliya tashkilotlarining moliya siyosati moliyaviy taqchilik yoqasida qolgan yoki moliyaviy qiyinchilikka uchragan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Odatda, yordam kreditlar berish shaklida yoki ilgari olingan davlat qarzlarini qayta tashkil etish shakllarida beriladi. Xalqaro moliya tashkilotlari yordami bepul emas, balki bir qator iqtisodiy yoki siyosiy shartlar bilan, hamisha ham qarzdor mamlakat manfaatiga foydali bo'lavermaydigan shartlar asosida beriladi.

SHunday qilib, moliya tizimining har bir bo'g'ini moliyaviy munosabatlarning muayyan sohasini tashkil etadi. Umuman moliya tizimi esa pul mablag'lari jamg'armalari yaratiladigan va ishlatiladigan turli moliyaviy munosabatlar sohalari majmuidan iborat. Boshqacha qilib aytganda, moliya tizimi davlat va korxonalarin pul mablag'lari jamg'armalarini hosil qilish, taqsimlash va qayta taqsimlashning shakl va usullari tizimi hisoblanadi.

Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini va xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonida ba'zi xulosalarga ega bo'ldik. SHundan kelib chiqsak, moliya - pul zahiralari jamg'armasi yoki moliyaviy resurslarni alohida fondlar orqali taqsimlash va foydalanish borasidagi munosabatlar tizimidir.

1.3. O'zbekiston Respublikasida moliya siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston soliq tizimida uzoq davr mobaynida samarali faoliyat qilib qolgan oborot solig'i o'rniga joriy qilingan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ning stavkasi dastlab 25 % miqdorida, keyinchalik 20,18 % miqdorigacha tushurildi. Hozirgi paytda davlatning moliyaviy siyosati O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga (O'zbekiston Respublikasining qonuni N 396-1, 24 aprel 1997 yilda tasdiqlangan) va 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini rivojlanishini prognozlariga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori N540, 05 dekabr 1997 yilda) muvofiq amalga oshiralyapti. Unda, QQS ning barcha tovarlar uchun soliq stavkasi 20 % miqdorida non, sut, go'sht va go'sht mahsulotlari uchun 10% miqdorida belgilangan bo'lib, bu tadbir aholi uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida qo'llaniladi.

YAqin o'tmishda, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilib qolgan moliyaviy siyosat kamchiliklarini namoyon qildi. Uzoq davrlar mobaynida mamlakatni iqtisodiy rivojlanishida moliya va aktiv moliyaviy siyosatning ahamiyatiga yetarlicha baho berilmadi. Iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlarning ahamiyatini buzib ko'rsatish sodir bo'ldi, moliya va moliyaviy dastaklarning aktiv ahamiyati inkor etilib, moliyaviy siyosat talab etilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan zarur usullarni ishlab chiqishga ojizlik qilib qoldi. Rivojlanishning uzoq davriga mo'ljallangan ibratlik kontseptsiyalarni ishlab chiqilmaganligi, kam samara beradigan, qisqa muddatli foyda olishni ko'zlab qo'yilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni og'ir ahvolga olib keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga o'tishda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi, moliya va moliyaviy munosabatlarda ham chuqur islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiy strategiya quyidagi vazifalarni bajarishni ko'zda tutdi:

1. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

2. Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.

Prezidentimiz I. Karimov belgilab bergan iqtisodiy strategiyadan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyotini birinchi bosqichida moliya va soliq siyosatining birinchi darajadagi chora-tadbirlari va ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Barqaror moliyaviy siyosatni amalga oshirish, davlat byudjeti defitsitini iloji boricha kamaytirish, byudjetdan beriladigan dotatsiya va subsidiyalarni barcha turlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;

2. Byudjet mablag'larini daromad tushgandan keyingina taqsimlanadigan yo'ldan og'ishmay borish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish;

3. Iqtisodiyot tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun byudjetdan qaytarib olmaslikni ko'zda tutib ta'minlash amaliyotidan voz kechish, ana shu maqsadlarda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;

4. Soliq tizimini takomillashtirish byudjet daromadlarini barqaror sur'atda to'lab turishni ta'minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarining, chet el kapitali ishtirokidagi qayta ishlaydigan va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarni rivojlanishini rag'batlantiradigan soliq siyosatini olib borish.

Belgilangan strategik vazifalar davlatning taktik chora-tadbirlari asosida bajariladi. Hozirgi kunga kelib, iqtisodiy o'sish davri boshlandi. YAlpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati barqarorlashdi. 1997 yilda sanoat ishlab chiqarish 5,5% ga, qishloq mahsulotlari ishlab chiqarish 8,5% ga o'sgan bo'lsa, 2013 yilga kelib mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,8 foizga oshdi. Davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, inflyatsiya darajasi 6,8 foizni tashkil etdi.

Soliq siyosati - bu moliya siyosatining bir qismi bo'lib, davlat orqali soliqlar doirasida chora-tadbirlar tartibini amalga oshirishdir. O'zbekiston Respublikasida oxirgi bir necha yillar mobaynida soliq tizimi mukammallashib jamiyatni iqtisodiy

hayotiga, korxonalarni, tashkilotlarni, aholini xo'jalik intizomiga, davlat tomonidan ta'sir etadigan kuchli dastakka aylandi. Davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar asosan soliq asosida olib boriladi. Soliq munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquqiy baza yaratilib va takomillashib bordi.

Soliq siyosati - bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodni, butun xalq xo'jaligini rivojlanishiga davlat orqali ta'sir etadigan muhim iqtisodiy dastakdir. SHuning uchun Respublikamizda soliq siyosatini takomillashtirishga va respublikani soliq organlarini samarali amal qilishini tashkil etish uchun katta ahamiyat berilmoqda.

YAqin o'tmishda soliq organlar moliya organlar tizimining bir qismi bo'lib xizmat qilishar edi. Lekin, bozor iqtisodiyotini talablarini va soliq siyosatini ahamiyatini o'sib borishini, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlanishini soliq orqali tartibga solishni inobatga olib, "O'zbekiston Respublikasini soliq organlari nizomi" asosida soliq organlari mustaqil davlat soliq qo'mitasi qayta tashkil etildi va unga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- davlat byudjetiga va boshqa fondlarga yo'naltiriladigan soliqlarni va to'lovlarni to'g'riligini hisoblash va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

- soliq to'lovchilarni, soliqqa tortiladigan ob'ektni va aholidan soliqlarni to'g'ri hisoblashni to'liq va o'z vaqtida hisobga olish;

- O'zbekiston Respublikasini soliq siyosatini realizatsiya qilishda qatnashish;

- daromadlarni (foydani) ataylab berkitish belgisini aniqlab olish maqsadida dastlabki to'lov tergovni olib borish, hamda tergov va sud organlariga amaldagi soliq qonunlarni buzish faktlar asosidagi materiallarni berib yuborish.

Soliqlarni olish mexanizmi O'zbekiston Respublikasini soliq qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida Moliya Vazirligi va davlat soliq qo'mitasi - yashlab chiqqan yo'riqnomalar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri solik yukini pasaytirish orqali mamlakatda tadbirkorlik va tijorat faoliyatni jadallashtirishdir.

Ikkinchidan, byudjet kamomadini YAIMga nisbatan 1-3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi.

Davlatning moliyaviy siyosatining uchinchi yo'nalishi, davlat byudjeti kamomadini noinflyatsion manbalardan moliyalashtirishni ta'minlash.

To'rtinchi yo'nalish esa, mexnatga layokatli axoli katlamini ish bilan ta'minlashni jadallashtirishdir.

Hech kimga sir emas, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko'ra, aholi bandligi masalalari o'zining dolzarbligi va o'tkirligini saqlab qolmoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi paytda banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklandi, 110 ta korxonalar yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 275 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o'rni yaratildi.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta'minlash 2014 yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Oliy Majlis tomonidan ma'qullangan dasturda 2014 yilda bir milliondan ortiq yangi ish o'rni tashkil etish ko'zda tutilgan. Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mazkur masalani hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu sohalarda qariyb 500 ming ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda.

Band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlashda kasanachilikning turli shakllarini, birinchi navbatda, kasanachilar va korxonalar o'rtasidagi

kooperatsiyani mehnat shartnomalari asosida kengaytirish, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi. Mazkur sohalar hisobidan 280 mingdan ortiq kishini ishga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Ish o'rinlarini tashkil qilishda, birinchi navbatda, tarmoq dasturlarini amalga oshirish, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, transport va kommunikatsiya qurilishini, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini kengaytirish masalalari muhim o'rin tutadi va bu sohalarda 250 ming kishini ish bilan ta'minlash belgilangan.

Beshinchi yo'nalish, kam ta'minlangan aholi qatlamini kuchli ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish hisoblanadi.

2013 yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdori o'rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iboratdir. Joriy 2014 yilda mamlakatimizda bu ko'rsatkichni 41 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Oilalar daromadlari tarkibi o'zgarmoqda – tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar aholi yalpi daromadlarining yarmidan ziyodini tashkil etmoqda. Holbuki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 20-25 foizdan oshmaydi.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir.

Ana shu davrda aholining banklardagi omonatlari o'sishi 34,6 foizni tashkil qildi, so'nggi o'n yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2012 yilda mamlakatimizdagi barcha investitsiyalarning 20 foizdan ortig'ini aholi investitsiyalari tashkil etgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8,0 barobarni tashkil etganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatimizning samarasidir.

Odamlarning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini aholining muayyan guruhiga mansubligini anglashi ularning turmush darajasi va sifatining umumiy hamda yakuniy indikatorini hisoblanadi.

Bu borada, albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, aholini sifatli iste'mol tovarlari, shu jumladan, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlash, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lish kabi hayot darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

Maktab ta'limini rivojlantirish chora-tadbirlarini jadallashtirish ham moliya siyosatining keyingi yo'nalishlaridan biridir.

2011 yildan Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi tashkil etildi.

Umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. eng zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan, 46 ming 300 dan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan 166 ta yangi maktab qurildi va rekonstruksiya qilindi, 151 ta maktab kapital ta'mirlandi. Mamlakatimizdagi 852 ta maktabda zamonaviy o'quv kompyuter sinflari tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda 9 ming 400 dan ziyod umumta'lim maktabi yoki jami maktablarning 96 foizi Ziyonet elektron axborot tarmog'iga ulanganini qayd etish lozim.

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi qilingan ishlarni sarhisob qilsak, Frantsiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinlidir. Ma'ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan.

Ettinchi yo'nalish milliy valyutaning ichki va tashqi konvertatsiyasiga to'lik erishish.

Agar 2010-yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki "barqaror" reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga yetdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda. Ma'lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Sakkizinchi yo'nalish mamlakatning ichki va tashqi karzini minimal darajaga keltirish bo'lib, 2014 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 17 foizidan, eksport hajmiga nisbatan esa 60 foizdan oshmadi. Bu xalqaro mezonlar bo'yicha "Har jihatdan maqbul holat" deb hisoblanadi.

Va nihoyat, so'nggi yo'nalish mamlakat milliy iktisodiyotiga xorijiy xususiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni ragbatlantirish.

Xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qariyb 69 foizni tashkil etishi va ularning hajmi 2014 yilda 22,4 foizga ortishi alohida e'tiborga loyiq.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

2-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MOLIYA SIYOSATINING ROLI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH,

2.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda moliya siyosatining roli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvarda o'tkazilgan yig'ilishida belgilab berilgan 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi hamda yuqori iqtisodiy o'sishi ta'minlandi.

Jumladan, 2013 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM) ishlab chiqarish hajmi 8,0 foizga o'sib, 119,0 trln. so'mni tashkil etdi.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida islohotlar tizimli va moliyaviy siyosat samarali amalga oshirilishi hisobiga erishilmoqda. Xususan,

– tashqi va ichki bozor talablari asosida iqtisodiyotni chuqur tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash jarayonlarining izchil amalga oshirilayotganligi;

– ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish;

– bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturiy vazifalarning o'z vaqtida bajarilayotganligi;

– ichki talabni aholi bandligi va real daromadlarining oshishini ta'minlash hisobiga rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

– qishloq xo'jaligini isloh etish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarning yaratib berilishi, qishloq xo'jaligida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish ko'lamining kengaytirilishi;

– respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, uning faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga zamin yaratmoqda.

2013 yilda mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmlarining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi.

Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 8,8 foizga oshdi. Sanoatda yuqori o'sish sur'atlari yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash (o'sish sur'ati 21 foiz), yengil sanoat (13 foiz), qurilish materiallari (13,6 foiz) hamda oziq-ovqat (9 foiz) sanoati tarmoqlarida kuzatildi.

2013 yilda qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2012 yilga nisbatan 6,8 foizga oshdi. SHu jumladan, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish 6,4 foizga, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish esa 7,4 foizga oshdi.

2013 yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga o'sib, uning YAIM tarkibidagi ulushi 53,0 foizni tashkil etdi.

Jumladan, yuqori o'sish sur'atlari kompyuter dasturlash (30,4 foiz), moliyaviy xizmatlar (29,3 foiz), sog'liqni saqlash (27,2 foiz), qurilish (25,4 foiz), maishiy xizmatlar (23,2 foiz), aloqa va axborotlashtirish (21,9 foiz), qishloq xo'jaligining texnik vositalarini ta'mirlash (18,2 foiz) hamda savdo va umumiy ovqatlanish (16,6 foiz) xizmatlarini ko'rsatish sohalarida kuzatildi.

Bunday yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishilishida «2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi» doirasida 2013 yilda 13 mingdan ortiq yangi xizmat ko'rsatish va servis sohasi korxonalari, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug'urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etilganligi muhim rol o'ynadi.

Ichki talabni rag'batlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda chakana tovar aylanmasining 14,8 foizga o'sishi kuzatildi.

2013 yilda o'zlashtirilgan (asosiy kapitalga yo'naltirilgan) investitsiyalarning umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga ortib, 13,0 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmining deyarli yarmi, ya'ni 47 foizi xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi.

2013 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga 3 mlrd. dollardan ortiq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb qilingan bo'lib, uning 72 foizdan ziyodi yoki 2,2 mlrd. dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalarning asosiy qismi - 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga va jihozlashga, shu jumladan, qariyb 40 foizi eng yangi zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va asbob-uskunalarini xarid qilishga sarflangan.

Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning 17,4 foizi transport va aloqa, 18,0 foizi yoqilg'i-energetika, 4,2 foizi qishloq xo'jaligi va 3,3 foizi metallurgiya tarmoqlariga yo'naltirildi.

Noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi qariyb 30,0 foizni, jumladan, uy-joy qurilishining ulushi 20,9 foizni, ta'lim sohasi 2,7 foizni va sog'liqni saqlash sohasi ulushi 2,9 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorni sifatli tovarlar bilan ta'minlash, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko'paytirish, zamonaviy xizmat ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini yaratishda mamlakatimiz iqtisodiyotida yetakchi kuchga va muhim bo'g'inga aylanib bormoqda.

Mazkur sohaning iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanishida mamlakatimiz Hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi barqaror ravishda o'sib bormoqda.

Xususan, 2013 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 55,8 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 23 foizi, mahsulot eksportining 18,0 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri keldi. SHu bilan birga, iqtisodiyotda jami ish bilan band bo'lgan aholining 75,0 foizi shu sohada faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlarining soni 2013 yilda 26 mingdan ziyodga o'sib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 190,0 mingtaga (dehqon va fermer xo'jaliklarini hisobga olmagan holda) yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan eksportni rag'batlantirish va import o'rnini bosuvchi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda jahon bozorida asosiy eksport tovarlar bo'yicha qulay kon'yunkturaning saqlanib turishi natijasida respublikamiz to'lov balansining, xususan, tashqi savdo balansining barqarorligi ta'minlanmoqda.

2013 yilda respublikamiz tashqi savdo aylanmasi 2012 yilga nisbatan 9,4 foizga, shu jumladan, eksport hajmi 10,9 foizga va import hajmi 7,7 foizga o'sdi. Bunda tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 1,3 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Umumiy eksport tarkibida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 72 foizdan ziyodni tashkil etdi.

2013 yilda qat'iy pul-kredit siyosati yuritilganligi inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyat kasb etdi va uning belgilangan prognoz ko'rsatkichidan past bo'lishi ta'minlandi.

2013 yil yakuni bo'yicha iste'mol baholari indeksi asosida hisoblanadigan inflyatsiya darajasi 2012 yilga nisbatan 0,2 foiz bandga pasayib, 6,8 foizni tashkil etdi. Bunda iste'mol baholari indeksining o'sishi asosan nomonetar omillar hisobiga yuz berdi.

Jumladan, o'tgan yilda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 3,9 foizga o'sib, uning inflyatsiyaga ta'siri 2,0 foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 7,4 foizga o'sib, inflyatsiya darajasiga ta'siri 2,1 foizni tashkil etdi. Xizmatlar narxi esa 13,8 foizga o'sib, iste'mol baholari indeksiga ta'siri 2,6 foizni tashkil qildi.

Aholi bandligi va daromadlari. 2013 yil davomida ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi.

Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohalarda 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

2013 yilda respublikamizda aholining real daromadlari 16,0 foizga, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi.

Bandlik darajasi hamda aholi daromadlarining bunday o'sishi, o'z navbatida, aholi turmush darajasining va ijtimoiy farovonligining barqaror ravishda oshib borishini ta'minlamoqda.

Pul-kredit sohasida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlariga muvofiq iqtisodiyotning oshib borayotgan pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish va bank tizimi likvidligini maqbul darajada saqlab turish orqali inflyatsiya darajasini belgilangan prognoz ko'rsatkichidan oshirmaslik maqsadlariga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda Markaziy bank o'z tasarrufidagi pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalandi.

O'z navbatida, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul bozorida operatsiyalari muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

SHuningdek, 2013 yil davomida tashqi savdo balansining ijobiy saldosi va bank tizimi sof tashqi aktivlarining ko'payishi hisobiga shakllangan qo'shimcha likvidlikning inflyatsion bosimga ta'sirini oldini olish maqsadida o'tkazib borilgan sterilizatsiya operatsiyalarining o'rtacha hajmi 2012 yilga nisbatan 1,2 martaga oshdi (2.1-rasm).



2.1-rasm

Majburiy rezerv talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda moliyaviy siyosatning muhim instrumentlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda (2.2-rasm).

Xususan, 2013 yil davomida inflyatsiya va pul massasining belgilangan prognoz ko'rsatkichlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida diversifikatsiyalangan majburiy rezerv normalari qo'llanilib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlari uchun – 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun – 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi.

2013 yilda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy rezervlari hajmi 463,1 mlrd. so'mga yoki yil boshiga nisbatan 25,2 foizga ko'paydi.



2.2-rasm

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvarag'iga qo'shimcha ravishda 1,2 mlrd. dollar miqdoridagi mablag'lar yo'naltirilishi pul massasining belgilangan prognoz ko'rsatkichidan ortiqcha o'sishining oldini olishga va shu orqali ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

SHuningdek, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi instrumentidan ham pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida foydalanildi.

Inflyatsiya darajasi, pul massasi hajmining, iqtisodiyotning kredit resurslariga bo'lgan talabini yetarli darajada qondirish va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2013 yilga belgilangan maqsadli parametrlaridan kelib chiqib, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2013 yil mobaynida yillik 12 foiz miqdorida saqlab turildi.

Qayta moliyalash stavkasini shu holatda ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

2013 yilda respublikadagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda Markaziy bank tomonidan qat'iy monetar siyosatining yuritilishi, o'z navbatida, mamlakatimizning pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari dinamikasida, jumladan, tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha hamda banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkalarida o'z aksini topdi.

Xususan, 2013 yil davomida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadining oshishi hisobiga respublikamizdagi moliya institutlari resurs bazasining kengayishi banklararo pul bozoridagi resurslar taklifining ko'payishiga va o'z navbatida, moliyaviy resurslar narxining arzonlashishiga sabab bo'ldi.

Jumladan, 2012 yil davomida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yillik hisobda 10,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda ushbu ko'rsatkich 9,9 foizga teng bo'ldi.

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining va unga mos ravishda aholi daromadlarining yildan-yilga yuqori sur'atlar bilan o'sishi, bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortib borishi hamda iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarning pasayib borishi kabi omillar ta'sirida 2013 yilda bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi kuzatildi.

Xususan, jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi jami depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2012 yildagi o'rtacha yillik 7,7 foizdan 2013 yilda 7,1 foizgacha pasaydi.

YUridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2012 yildagi o'rtacha yillik 6,2 foizdan 2013 yilda 6,0 foizgacha pasaydi.

SHuningdek, banklararo pul bozoridagi operatsiyalar hamda depozitlarni jalb qilish bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi natijasida tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bo'yicha, jumladan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlash bo'yicha foiz stavkalarining ham pasayishi kuzatildi.

Jumladan, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlariga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2012

yil dekabr oyida 13,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 13,0 foizgacha pasaydi.

2013 yilda valyuta siyosati uning asosiy tamoyillari, ya'ni milliy valyutamiz so'mning almashuv kursi barqarorligini hamda ichki valyuta bozorida talab va taklifning mutanosibligini ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirildi.

Bunda asosiy e'tibor inflyatsion jarayonlarni jilovlashga, milliy valyuta almashuv kursi keskin tebranishlarining oldini olishga hamda eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

O'z navbatida, valyuta almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan usulini qo'llash orqali almashuv kursining maqsadli koridor doirasida bo'lishi ta'minlandi. eksportni rag'batlantirish maqsadida so'mning AQSH dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'rildi.

Natijada 2013 yil davomida so'mning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 11,0 foizga pasayib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, bir AQSH dollari 2202,20 so'mni tashkil qildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining 95 foizga yaqini AQSH dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi.

SHunga muvofiq, so'mning AQSH dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSH dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi.

Olib borilgan valyuta siyosati ta'sirida so'mning almashuv kursi yevroga nisbatan 15,7 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 14,2 foizga, funt sterlingga nisbatan 13,1 foizga pasayib, eksportni rag'batlantirishga xizmat qildi.

2013 yilda respublika bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro

reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» Dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi. Jumladan:

– banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini yanada oshirish maqsadida ular kapitallashuvini oshirish, resurs bazasini ko'paytirish va aktivlar sifatini yaxshilash, bank sohasiga xususiy kapitalni keng jalb etish;

– respublika tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va bank nazorati tizimini Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi talablaridan kelib chiqqan holda xalqaro andozalar asosida takomillashtirib borish;

– mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatini yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan me'yor va ko'rsatkichlar asosida baholash amaliyotini kengaytirish va ushbu darajalarga erishish tadbirlarini amalga oshirish;

– iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan bank kreditlari hajmini yanada ko'paytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan biznes-loyihalarni moliyalashtirishga kreditlar ajratish hajmini oshirish;

– xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

2013 yilda bank tizimida amalga oshirilgan izchil va aniq maqsadli islohotlar banklar kapitallashuv darajasi va depozit bazasining yuqori sur'atlarda o'sishiga imkon berdi va natijada bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, moliyaviy vositachilik roli kengaydi hamda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati yanada oshdi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli Qarori bilan

tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan tahlil qilinganda, bank tizimining barcha ko'rsatkichlari «yuqori darajada»gi indikator baholariga muvofiq kelmoqda.

Jumladan, 2013 yil bo'yicha bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etdi. Bu esa, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro me'yordan 3 barobar yuqoridir.

Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2013 yilda ham 65 foizdan yuqori darajada saqlanib qolayotganligi va ushbu ko'rsatkichning talab etiladigan minimal darajadan 2,2 barobar ortiqligi mamlakatimiz bank tizimining mustahkamligini hamda har qanday tashqi va ichki salbiy ta'sirlarga to'la bardosh bera olishini tasdiqlaydi.

Banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish indikatorlari, jumladan, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49,7 tani tashkil etib (30 tadan ko'pi yuqori bahoga to'g'ri keladi), «yuqori daraja» va har mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan jismoniy shaxs-omonatchilar hisobvarag'i soni 1028 birlikni tashkil etib, bu bo'yicha ham (1000 tadan ko'pi) «yuqori daraja» baholariga muvofiq kelmoqda.

SHuningdek, yuqoridagi qaror talablari bo'yicha respublika bank tizimida depozitlar hajmi dinamikasi, kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi kabi indikatorlar ham yuqori darajadagi baholarga muvofiq kelmoqda.

SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi 117-sonli qarori asosida 2012 yilning 1 iyulidan boshlab joriy etilgan, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shu jumladan, moliya-bank sohasi faoliyatini baholovchi indikatorlarning har chorakdagi tahlili natijalari tijorat banklarining hududlardagi filiallari ko'rsatkichlarining yuqoriligini ko'rsatdi.

2013 yilda tijorat banklarining respublika hududlaridagi filiallar tarmog'i yanada kengayib, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ularning soni 837 taga yetdi.

Bank muassasalarini aholi va ishlab chiqarish korxonalariga hududlariga yaqinlashtirish orqali bank xizmatlaridan foydalanish sharoitlarini yanada

qulaylashtirish maqsadida tashkil etilgan minibank va maxsus kassalar soni o'tgan yilda 66 taga ko'payib, ularning soni 4196 taga yetdi, shundan 2156 tasi qishloq joylarida joylashgan.

Bundan tashqari, aholidan kommunal va boshqa to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi 505 ta ixtisoslashtirilgan ko'chma kassa faoliyati yo'lga qo'yildi.

Respublikamizdagi tijorat banklari bilan keng qamrovli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda xorijiy yirik banklarning 6 ta vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

Bank infratuzilmasining kengayib borayotganligi, o'z navbatida, moliya bozorida raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmatlari sifatining yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

2013 yilda banklar kapitallashuvini oshirishning barcha vositalaridan samarali foydalanish, jumladan, qo'shimcha aksiyalar va qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish hamda joylashtirish orqali aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish ko'lamlarini kengaytirish natijasida tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi 2012 yilga nisbatan 25 foizga oshib, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 6,5 trln. so'mdan oshdi. Bunda tijorat banklarining ustav kapitalini yanada oshirish borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va ularda belgilangan tadbirlar ijrosining ta'minlanganligi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Xususan:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 29 martdagi «Mikrokreditbank» ochiq aksiyadorlik-tijorat bankining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1945-sonli Qaroriga muvofiq, «Mikrokreditbank»ning ustav kapitali 40 mlrd. so'mga;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 martdagi «O'zbekiston sanoat-qurilish banki» ochiq aksiyadorlik-tijorat banki kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 83-sonli qaroriga muvofiq, «O'zsanoatqurilishbank»ning ustav kapitali 152 mlrd. so'mga oshirildi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 16 maydagi «Agrobank» ochiq aksiyadorlik-tijorat banki kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1966-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-2014 yillarda «Agrobank»ning ustav kapitalini 123,8 mlrd. so'mga oshirish belgilandi va shundan 2013 yilda 94,1 mlrd. so'mlik mablag'lar «Agrobank» ustav kapitaliga yo'naltirildi.

Umuman olganda, 2013 yilning o'zida tijorat banklarining ustav kapitalini oshirish maqsadida jami 534,5 mlrd. so'mlik qo'shimcha aksiyalar investorlar orasida joylashtirildi.

Bunda muomalaga chiqarilgan aksiyalarning 25 foizidan kam bo'lmagan qismi «Toshkent» respublika fond birjasi orqali birlamchi ochiq savdolarida joylashtirib borildi.

Mamlakatimiz banklarining barqaror mavqei bank tizimiga bo'lgan ishonchning, xususan, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank depozitlarida saqlanayotgan bo'sh pul mablag'lari hajmining barqaror yuqori sur'atlarda oshib borishiga mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

SHu bilan birga, aholi daromadlarining barqaror o'sib borayotganligi, aholiga xizmat ko'rsatishning uslub va mexanizmlarining takomillashishi, omonatlarning ishonchli saqlanishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda aholi omonatlari to'liq qaytarilishining davlat tomonidan kafolatlanganligi tijorat banklari resurs bazasining muntazam ravishda oshib borishini ta'minlamoqda.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tijorat banklaridagi depozitlari umumiy hajmi 2013 yil boshiga nisbatan 30,2 foizga ortib, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 26,1 trln. so'mga yetdi.

SHuningdek, banklarda uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb qilishdagi moliyaviy vositalardan biri hisoblangan bank qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish ishlari ham jadallashtirildi.

2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan hamda aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida joylashtirilgan tijorat banklarining depozit va jamg'arma sertifikatlari 592 mlrd. so'mni, shuningdek, investorlar orasida joylashtirilgan tijorat banklarining uzoq muddatli obligatsiyalari 330 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ayni vaqtda bank-moliya xizmatlari ko'lamini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy shakli – bank plastik kartochkalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra:

- muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni 11 mln. donani;
- chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni qariyb 129,7 mingtani;
- o'rnatilgan infokiosk va bankomatlar soni 1733 tani tashkil etdi.

O'z navbatida, 2013 yil davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 2012 yildagiga nisbatan 1,4 barobarga oshib, 16,3 trln. so'mni tashkil etdi.

SHu bilan birga, «O'zkart» banklararo chakana to'lov tizimi faoliyatini takomillashtirish va samarali tashkil etish maqsadida Markaziy bank huzuridagi Axborotlashtirish bosh markazida «Banklararo universal netting axborot tizimi» dasturiy majmuasi ishga tushirildi.

SHu munosabat bilan «O'zkart» tizimida hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha bank vazifalari Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining Banklararo hisob-kitob markazidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kliring markaziga o'tkazildi.

Tijorat banklarining o'zaro majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarning Markaziy bank Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirilishi hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish muddatlarining qisqarishiga va to'lov tizimi tranzaksion xarajatlarining kamayishiga olib keldi

hamda tijorat banklariga o'z mablag'laridan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatini berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchilar, jumladan, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan («bank-mijoz», «internet-banking», «mobil-banking», «SMS-banking») foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda.

2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 250 mingtadan ortdi. SHundan, «internet-banking» va «bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 75 mingtani tashkil etib, ularning soni 2013 yil boshiga nisbatan 2,3 barobarga ko'paydi.

Banklardagi depozitlar bazasining yanada mustahkamlanishi va umumiy kapitalning oshirilishi banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda.

Buning natijasida tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2013 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 30 foizga oshib, joriy yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 43,9 trln. so'mni tashkil etdi (2.3-rasm).

SHu jumladan, tijorat banklarining kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 2013 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan 30 foizga oshib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 26,5 trln. so'mni tashkil etdi.

Banklarning investitsion kreditlari ustuvor ravishda «2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish», «2013 yilgi Investitsiya dasturi» hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olishni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.



2.3-rasm


2013 yil mobaynida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 7,2 trln. so'm yoki 2012 yildagiga nisbatan 1,2 barobardan ziyodga ko'p investitsion kreditlar ajratildi (2.4-rasm).

SHuningdek, eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni aylanma mablag'larini to'ldirishga imtiyozli shartlarda 12 oy muddatga 585,5 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4455-sonli va 2011 yil 24 avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4354-sonli farmonlari va 2011 yil 11 martdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1501-sonli Qarori bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining yanada erkinlashtirilishi hamda ular uchun yaratilgan imtiyoz va qulayliklar, sohaning yanada rivojlanishiga va natijada ushbu sektor sub'ektlari tomonidan bank xizmatlari va kreditlariga talabning oshishiga imkon bermoqda.



2.4-rasm

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi PF-4453-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar muayyan hisobotlarni soliq va statistika organlariga yilda bir marta taqdim etishini inobatga olgan holda tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari ajratilishi jarayonida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'shimcha ravishda moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi bekor qilindi.

SHu bilan bir qatorda, kredit olish yuzasidan arizalarni elektron tizim orqali qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2022-sonli Qaroriga muvofiq, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida respublika mintaqalarida hududiy filiallari

bo'lgan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» tashkil etildi.

Ushbu Jamg'armaning asosiy vazifasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib, o'tgan qisqa davrdagi faoliyati davomida Jamg'arma tomonidan 153 ta tadbirkorlik sub'ektiga umumiy qiymati 56 mln. dollardan ziyod bo'lgan eksport shartnomalarini tuzishda amaliy yordam ko'rsatildi.

SHu bilan birga, mazkur qaror asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni oldingi 60 kun o'rniga 180 kun mobaynida kelib tushish sharti bilan xorijiy valyutaga eksport qilish huquqi berildi.

Amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida, 2013 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qariyb 7 trln. so'm miqdorida yoki 2012 yilga nisbatan 1,3 baravarga ko'p kreditlar ajratildi.

SHu jumladan, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 1 366 mlrd. so'mdan ziyodni tashkil etib, mazkur ko'rsatkichning ham 2012 yilga nisbatan 1,3 barobarga o'sishi ta'minlandi (2.5-rasm).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining kredit liniyalari va grantlari hisobidan 145,4 mln. dollar miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.



2.5-rasm

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PQ-1047-sonli «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga asosan 2013 yilda tijorat banklari tomonidan mahalliy oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga qariyb 1 263 mlrd. so'm yoki 2012 yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi PQ-1050-sonli «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga asosan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlariga esa 1 298,1 mlrd. so'mdan ziyod kreditlar ajratilib, ushbu ko'rsatkichning ham 2012 yilga nisbatan 1,3 barobarga o'sishi ta'minlandi.

«Obod turmush yili» davlat dasturining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

2013 yilda «Obod turmush yili» Davlat dasturida tijorat banklarining kredit mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan vazifalarning belgilangan muddatlarda moliyalashtirilishi ta'minlandi.

Xususan, Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida tijorat banklari tomonidan:

– oilaviy, xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilik sub'ektlariga 136,8 mlrd. so'm (Davlat dasturi prognoz ko'rsatkichining bajarilishi 124,2 foiz);

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qoramol sotib olish uchun shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga 141,5 mlrd. so'm (133 foiz);

– o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga 140,1 mlrd. so'm (261,9 foiz);

– respublika hududlarida yangi bog'lar, intensiv bog'-tokzorlarni barpo etish hamda mavjud bog'lar va tokzorlarni qayta tiklash uchun 61,2 mlrd. so'm (128 foiz);

– parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga 160,4 mlrd. so'm (110 foiz);

– «YOsh oilalarga – uy-joylar» dasturini amalga oshirishni davom ettirish uchun 238,4 mlrd. so'm;

– qishloq hududlarida yashovchi aholining uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan mahalliy uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishi uchun 89,4 mlrd. so'm (223 foiz);

– aholiga ipoteka kreditlari ajratish va kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun Germaniya rivojlanish banki (KfV) kredit liniyasi mablag'lari hisobidan 19,1 mln. dollar miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Umuman olganda, 2013 yilda Davlat dasturi doirasida tijorat banklari tomonidan jami 2 476 mlrd. so'mlik kredit mablag'lari ajratildi va bu prognoz ko'rsatkichning 141 foizini tashkil etdi.

Kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va bank nazorati tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar

2013 yilda moliya-bank tizimi, xususan, kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni xalqaro andozalar va tamoyillarga muvofiq yanada takomillashtirish borasidagi ishlar davom ettirilib, bu yo'nalishda qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, banklarning aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yetarli zaxiralarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida Markaziy bankning «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish» Tartibiga asosan Markaziy bank tomonidan banklarning aktivlari doimiy ravishda inventarizatsiyadan o'tkazib borildi.

O'z navbatida, «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 53-moddasiga asosan banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarini belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, ularga nisbatan Markaziy bank tomonidan tegishli choralar va sanksiyalar qo'llanildi.

2013 yilning fevral oyida Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi bilan mamlakatimiz bank nazorati tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish va xalqaro Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini joriy qilish bo'yicha Texnik yordam dasturi doirasida uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

Bunda jamlanma nazoratni joriy etish, banklarning foiz va operatsion tavakkalchiliklarini nazorat qilish hamda banklarda maqsadli tekshirishlarni amalga oshirish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish masalalariga asosiy e'tibor berilmoqda.

SHu bilan birga, respublika bank tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar doirasida 2013 yilning mart oyida Germaniya federal banki – «Deutsche Bundesbank» bilan hamkorlikdagi loyiha doirasida «Tizimli tavakkalchilik tahlili va makroprudentsial nazorat» mavzusida amaliy hamkorlik o'rnatildi.

Respublika tijorat banklari tomonidan yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari reyting baholarining muntazam ravishda yangilab borilishi

2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklarining «barqaror» reytingiga ega bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamizning yetakchi banklari – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, «Asakabank», «Ipoteka-bank», «O'zsanoatqurilishbank», «Hamkorbank» va «Ipak yo'li» banki bir yo'la ikkita yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» reytingiga ega.

SHuningdek, respublika bank tizimi kapitallashuv va likvidlik darajalarini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank tizimini xalqaro me'yor va andozalarga muvofiq yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijalari jahon hamjamiyati, xalqaro moliya va reyting tashkilotlari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Xususan, 2013 yilning 8 avgust kuni «Mudis» xalqaro reyting agentligi «O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqboli» navbatdagi hisobotini e'lon qilib, O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbolini ketma-ket to'rtinchi yil «barqaror» darajada tasdiqladi.

«Mudis» agentligining fikricha, 2010 yildan buyon bank tizimi rivojlanishining istiqboli «barqaror» darajada saqlanishida, avvalo, banklar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratayotgan mamlakat iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan o'sib borishi, shuningdek, banklar daromadliligining ijobiy ko'rsatkichlari va aktivlari sifatining yaxshilanishi, likvidlik darajasining barqarorligi, mijozlar depozitlarining o'sib borishi, hukumat tomonidan yirik banklarga yo'naltirilayotgan sezilarli moliyaviy resurslar asosiy ijobiy omillar bo'lib xizmat qildi.

«Standart end Purs» hamda «Fitch Reytings» xalqaro reyting agentliklari tomonidan ham O'zbekiston bank tizimi barqaror rivojlanish yo'lida ekanligi e'tirof etilib, ular tomonidan O'zbekiston banklariga «barqaror» reyting baholari berilgan.

SHuningdek, Xalqaro valyuta fondining 2013 yil 25 sentyabr – 2 oktyabr kunlari O'zbekistonga tashrif buyurgan missiyasi o'z bayonnomasida

O'zbekiston bank tizimining barqaror rivojlanib borayotganligini hamda ushbu tizimda yuqori kapitallashuv va likvidlilik darajasi ta'minlanayotganligini yana bir bor alohida ta'kidladi.

Bank faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisida bayon etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi»ga asosan tayyorlangan «Garov reestri to'g'risida»gi Qonun 2013 yil 19 iyulda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, o'tgan yilning 22 avgustida Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013 yil 23 oktyabrda imzolandi. Ushbu qonun 2014 yil 1 iyuldan e'tiboran kuchga kiradi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda garov reestrini shakllantirish, yuritish va foydalanish sohasidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy tartibga solib, moliya-kredit bozoridagi shaffoflikni oshirish, kreditorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, kredit tavakkalchiligini kamaytirish hamda garov aylanmasining oshishi hisobiga kichik biznes vakillarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari va iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik ko'lamlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari va xalqaro moliya institutlari ekspertlarining takliflarini inobatga olgan holda Markaziy bankning «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomiga 2013 yil 30 yanvarda 949-7-son hamda «Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi Nizomiga 2013 yil 29 yanvarda 559-1-son bilan tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi «Statistik, so'liq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4453-sonli

Farmoniga asosan kredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida Markaziy bankning qator me'yoriy hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, «Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi, «Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi va «Mikrokredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi Nizomlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, Markaziy bank Boshqaruvining tegishli qarorlari Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazildi.

SHu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini kreditlashga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida ilgari amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rniga «Tijorat banklari tomonidan byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan imtiyozli mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida»gi (ro'yxat raqami 2527-son, 2013 yil 19 noyabr) va «Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida»gi (ro'yxat raqami 2546-son, 2013 yil 27 dekabr) nizomlar ishlab chiqilib, Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi va amaliyotga joriy etildi.

2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari

2014 yilda moliya siyosati va bank tizimining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida belgilab berilgan vazifalarning bajarilishiga qaratiladi. Xususan:

– iqtisodiyotni o'stirishning barqaror yuqori sur'atlarini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan strategiyani davom ettirish, buning uchun mavjud rezervlar va imkoniyatlarni safarbar etish;

– sanoatda yuqori texnologiyali va zamonaviy bo'lgan eng muhim ob'ektlar hamda quvvatlarni ishga tushirish, investitsiya jarayonini oshirish va takomillashtirish;

– mamlakatda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalashning, jahon bozorlariga chiqishning asosiy omili hisoblangan to'laqonli raqobat muhitini shakllantirish;

– ishbilarmonlik muhitini («biznes bilan shug'ullan» tamoyili bo'yicha) shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish;

– ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish o'rinlari tashkil etish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim jarayonini va sog'liqni saqlash sohasini isloh qilishni davom ettirish va takomillashtirish;

– «Sog'lom bola yili» Davlat dasturini amalga oshirish 2014 yilgi pul-kredit siyosatining va bank tizimi faoliyatining eng muhim ustuvor yo'nalishlari etib belgilab olindi.

2014 yilda respublikamizda yalpi ichki mahsulotning 8,1 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Iqtisodiy o'sishning bunday yuqori sur'ati mamlakatimizda sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish tarmoqlarida mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmining yuqori sur'atlarda oshishi hamda eksport hajmining ko'payishi hisobiga ta'minlanadi.

Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining 6,0 foizga va chakana savdo aylanmasining 13,9 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. SHuningdek, bozor xizmatlari hajmining 16,2 foizga oshishi hisobiga xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55,0 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishga asoslangan yangi korxonalarni barpo etish va faoliyat yuritayotgan korxonalarni zamonaviy talablar asosida modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta

jihozlash, infratuzilmani rivojlantirish, qishloq joylarda yangi, zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan turay-joy massivlarini barpo etish, ijtimoiy ob'ektlarni kengaytirish va rekonstruktsiya qilish kabi investitsion loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladigan kapital qo'yilmalar real hajmini oshirish hisobiga erishiladi.

Joriy yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmining o'tgan yilga nisbatan 10,1 foizga o'sishi va 14,3 mlrd. dollarni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Xususan, 2014 yilda 3,9 mlrd. dollardan ziyod yoki 2013 yilga nisbatan 29 foiz ko'proq hajmdagi xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilishi kutilmoqda.

Aholi real daromadlarining ortishi, o'z navbatida, yalpi ichki mahsulot tarkibida iste'mol komponentining hamda aholi tomonidan uzoq muddatli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishida, shuningdek, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishida o'z aksini topadi hamda yalpi ichki mahsulot hajmiga ijobiy ta'sir etadi.

2014 yilga tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga muvofiq uning defitsitini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1 foizdan oshirmaslik hamda uni noinflyatsion manbalar hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilmoqda.

Ichki bozorda iste'mol tovarlari narxlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni, jahon bozoridagi narxlar dinamikasini, shuningdek, ichki talabni rag'balantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni inobatga olgan holda, 2014 yil uchun inflyatsiya 6-7 foiz miqdorida bo'lishi kutilmoqda.

2014 yilga mo'ljallangan pul-kredit ko'rsatkichlarining prognozi Hukumat tomonidan belgilab berilgan yuqoridagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz parametrlariga muvofiq ishlab chiqildi.

Ushbu asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi doirasida 2014 yilda yalpi ichki mahsulotning 8,1 foizga o'sishining pulga bo'lgan real talabi va aholi daromadlari o'sib borayotganligidan kelib chiqib, o'rtacha yillik pul massasi yalpi ichki mahsulotga nisbatining 1,0 foiz bandga oshishi ko'zda tutilmoqda.

O'z navbatida, inflyatsiya darajasi va pul massasini maqsadli parametrlar doirasida ushlab turish va tashqi omillarning inflyatsiyaga ta'sirining oldini olish maqsadida Markaziy bank tomonidan 2014 yilda ham monetar siyosatning bozor instrumentlaridan keng foydalaniladi.

Jumladan, to'lov balansini prognoz ko'rsatkichlarining va Markaziy bankning hukumatga bo'lgan sof talablarining o'zgarish dinamikasini hisobga olib, bank tizimida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ortiqcha likvidlikning inflyatsion bosimining oldini olish maqsadida Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan sterilizatsiya operatsiyalari hajmini 1,2 martaga oshirish mo'ljallanmoqda.

SHuningdek, foiz siyosatida asosiy e'tibor pul bozorining barqarorligini va bank depozitlari jozibadorligini ta'minlashga, jumladan, aholi omonatlari bo'yicha real foiz stavkalarining ijobiylikni saqlab qolish hamda tijorat banklari depozitlar portfelidagi uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining maqbulligini ta'minlashga qaratiladi.

2014 yilda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini va iqtisodiyotning real sektoridagi investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash hamda iste'mol narxlarini indeksining 6-7 foiz darajada prognoz qilinayotganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2014 yilning 1 yanvaridan boshlab qayta moliyalash stavkasini amaldagi yillik hisobda 12 foizdan 10 foizga tushirish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Qayta moliyalash stavkasining tushirilishi natijasida bank kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalarining pasayishi va natijada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faolligi oshishi kutilmoqda.

Jumladan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga yo'naltirilgan dasturlarni moliyalashtirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratiladigan kreditlar va mikro kreditlar bo'yicha foiz stavkalari pasayadi hamda kreditlar hajmining oshishi hisobiga qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish va import o'rnini bosuvchi tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda import qilinadigan xalq iste'moli mahsulotlari narxlarini pasaytirish orqali inflyatsiyani prognoz parametrlari doirasida bo'lishini ta'minlash maqsadida o'zgarib boruvchi boshqariladigan almashuv kursi strategiyasi qo'llaniladi va almashuv kursi maqsadli koridor doirasida ushlab turiladi.

Markaziy bank 2014 yilda ichki va tashqi moliya bozorlaridagi o'zgarishlarni inobatga olib, monetar siyosatning tegishli bozor instrumentlarini keng qo'llagan holda qat'iy pul-kredit siyosatini yuritishni davom ettiradi.

SHu bilan birga, monetar siyosat instrumentlarining samaradorligini yanada oshirish va ko'rilayotgan chora-tadbirlarning pul bozori holatiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadli ishlar olib boriladi.

Bank tizimi likvidligini doimiy ravishda monitoring qilish orqali tijorat banklarining vakillik hisobvarag'idagi va boshqa yuqori likvidli aktivlarining harakati tahlil qilib boriladi va ularning eng maqbul darajada bo'lishini ta'minlash uchun Markaziy bank tomonidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Majburiy rezervlar normasi bank tizimining likvidlik darajasi pul massasi va tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atlaridan kelib chiqqan holda belgilanib, zarur hollarda o'zgartirib boriladi.

SHuningdek, bank tizimida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ortiqcha likvidlikning inflyatsion bosimining oldini olish hamda pul massasini tartibga solish maqsadida tijorat banklarining bo'sh turgan pul mablag'larini Markaziy bankdagi turli muddatli depozitlarga jalb qilish orqali sterilizatsiya operatsiyalari o'tkazib boriladi.

Bank tizimida vaqtinchalik likvidlik yetishmovchiligi yuzaga kelgan hollarda Markaziy bank tomonidan likvidlik bilan ta'minlash instrumentlaridan, xususan:

Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan xorijiy valyutani (AQSH dollari, yevro, yapon ienasi va funt sterling), belgilangan muddat va almashinuv

kursida qayta sotish sharti bilan, sotib olish operatsiyalari – valyutaviy SVOP operatsiyalaridan foydalaniladi.

SHuningdek, ichki valyuta bozoridagi barqarorlikni va soʻmning almashuv kursining belgilangan koridor doirasida boʻlishini taʼminlash maqsadida Markaziy bank banklararo valyuta bozorida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiradi.

Bank tizimi likvidligini tartibga solish tizimini bozor tamoyillari asosida yanada takomillashtirish foiz siyosatining samaradorligini oshirish va pul bozorida foiz xatarlarini pasaytirish imkonini beradi.

2014 yilda bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishda asosiy eʼtibor Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting koʻrsatkichlariga erishishning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha kompleks chora-tadbirlar» Dasturida hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining bank faoliyatiga oid boshqa farmon va qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar ijrosini taʼminlashga qaratiladi.

SHuningdek, 2014 yil uchun bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlarini ishlab chiqishda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2013 yil 23 avgustdagi «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2012 yildagi faoliyati toʻgʻrisidagi hisoboti haqida»gi №SQ-390–II-sonli Qarorida bank tizimi oldiga qoʻyilgan ustuvor vazifa va topshiriqlarning ijrosi inobatga olingan.

Xususan, 2014 yilda respublika bank tizimining barqarorligini yanada oshirish va xalqaro andozalarga muvofiq rivojlanishini taʼminlash hamda yuqori iqtisodiy oʻsishni taʼminlashdagi rolini kengaytirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Bank tizimi barqarorligini yanada oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan tadbirlar doirasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro talablar, jumladan, Bank nazorati boʻyicha Bazel

qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida yanada takomillashtirish bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi.

Xususan:

– Bazel qo'mitasining kapital yetarliligi va bank likvidligi borasidagi yangi tavsiyalarini joriy qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

– banklar faoliyatining aniq va xolis baholanishini ta'minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqinini tatbiq qilishni ko'zda tutgan holda tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish;

– masofaviy nazorat tizimini bu sohadagi ilg'or xalqaro tajriba asosida yanada takomillashtirish;

– bank tizimidagi tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudentsial tahlilning zamonaviy usullarini keng qo'llash;

– ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan holda tijorat banklarini stress-testlardan o'tkazish amaliyotini keng ko'lamda joriy qilish va rivojlantirish;

– tijorat banklaridagi korporativ boshqaruv organlari rolini va mas'uliyatini oshirish hamda korporativ boshqaruv, tavakkalchiliklar va kapitalni boshqarish tizimlariga belgilangan talablarga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, banklar kreditorlari va omonatchilarining himoyalani darajasini oshirish hamda aholi va xo'jalik sub'ektlari orasida bank tizimiga bo'lgan ishonchning yanada oshishiga xizmat qiladi.

2. Respublika moliya-bank tizimi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) to'liq moslashtirish borasidagi quyidagi tadbirlarni amalga oshirish davom ettiriladi:

– banklar tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish bo'yicha amaldagi yo'riqnomalarni MHXSga mos ravishda takomillashtirish;

– MHXSni joriy etish va qo'llash bo'yicha bank xodimlarini qayta tayyorlash;

– respublika buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishga asos bo'lgan barcha qonun hujjatlarini, shu jumladan, Markaziy bankning bank tizimiga oid normativ hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish;

– MHXSga mos yangi normativ hujjatlar ishlab chiqish;

– MHXS talablariga mos bo'lgan Bank avtomatlashtirilgan tizimini Tashqi auditorlik tashkilotlarining sertifikatiga ega bo'lgan xodimlari bilan hamkorlikda yangilash bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

YUqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish va davom ettirish uchun Jahon banki bilan hamkorlikda «O'zbekiston Respublikasi bank tizimida moliyaviy hisobotlar va auditning xalqaro standartlarini joriy qilishni tashkillashtirish to'g'risida»gi loyihaning yangi bosqichi amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

3. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini yanada oshirish, resurs bazasini mustahkamlash va diversifikatsiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish davom ettiriladi.

Bunda asosiy e'tibor qo'shimcha aktsiyalar chiqarish va joylashtirish borasidagi ishlarni jadallashtirish hisobiga banklar kapitallashuv darajasining kamida 20 foizga oshishini ta'minlashga qaratiladi.

SHuningdek, bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektori ulushini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida ishlar davom ettiriladi.

2014 yilda tijorat banklari resurs bazasini yanada mustahkamlash maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb etishni yanada faollashtirish hisobiga ularning tijorat banklaridagi depozitlari hajmining kamida 30 foizga oshishini ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Banklardagi depozitlar hajmini oshirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining hududlar bo'yicha ijrosi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi 117-sonli qarori talablariga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Bunda aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar talablarini hisobga olgan holda depozit va omonatlarning yangi jozibador turlarini muntazam ravishda joriy qilib borish, tijorat banklarida aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish va muddatida qaytarish sharoitlarini yanada qulaylashtirish hamda uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish borasidagi ishlarni davom ettirish ko'zda tutilmoqda.

4. Tijorat banklarining ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash davlat dasturlarini amalga oshirish jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish 2014 yilda ham bank tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

2014 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kredit qo'yilmalari hajmining 26 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Xususan, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi turar joylarni barpo etish maqsadlariga tijorat banklari tomonidan barcha manbalar hisobidan 7,8 trln. so'm miqdorida investitsion kreditlar ajratilishi prognoz qilinmoqda.

Jumladan, qishloq joylarida yakka tartibdagi yangi turar joylarni barpo etish maqsadlariga 1,1 trln. so'm miqdorida kreditlar ajratish prognoz qilinmoqda. SHundan 231 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'lar Osiyo taraqqiyot bankining kredit liniyasi hisobidan beriladi.

SHu bilan birga, iqtisodiyotni kreditlash hajmlarini kengaytirish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kredit xatarlarining oldini olish maqsadida tijorat banklari tomonidan aktivlarni diversifikatsiya qilish, shu jumladan, kredit portfelini yaxshilash, tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan zarur chora-tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib boriladi.

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 2014 yilda tijorat banklari tomonidan jami 7,5 trln. so'm miqdorida kreditlar ajratilishi prognoz qilinmoqda.

Bunda asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari boshlang'ich kapitalini shakllantirish, ularning investitsion loyihalari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmlarini kengaytirish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes-rejalarini moliyalashtirish, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinlarini tashkil etishga yo'naltirilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmlarini kengaytirishga qaratiladi.

SHu bilan birga, mamlakatda yanada qulay tadbirkorlik muhitini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni uzluksiz davom ettirish maqsadida ushbu sektor ishtirokchilari uchun moliya-kredit resurslaridan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari, mexanizmlari va amaliyoti takomillashtirib boriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb qilish ishlari faollashtiriladi.

6. Mikromoliyalash sohasini va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish.

2014 yilda nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish va barqororligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi va ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mo'ljallanmoqda:

- nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro andozalar asosida yanada takomillashtirish;

- nobank kredit tashkilotlari va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish;

- nobank kredit tashkilotlari tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, dasturiy ta'minotlar asosida buxgalteriya hisobi va boshqa moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni keng joriy etish;

- respublika hududlarida kam ta'minlangan oilalardagi ayollarga imtiyozli resurslar, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari, investorlar va donorlar

mablag'lari hisobidan mikro kredit va mikroqarzarlar ajratishga ixtisoslashgan nobank kredit tashkilotlarini tashkil etish va uzluksiz ish faoliyatini ta'minlash ishlarini davom ettirish.

7. Respublika tijorat banklari va bank-moliya tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularga erishish borasidagi ishlar davom ettiriladi. Bunda 2014 yilda:

- yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» bilan hamkorlikni va ular tomonidan qo'llaniladigan xalqaro me'yor, andoza va baholash tizimini tatbiq qilishni yanada kengaytirish;

- tijorat banklariga yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari omonidan berilgan reyting baholarining muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash;

- yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan tijorat banklari faoliyatini baholash tizimi, mezon va andozalari bo'yicha bank tizimi mutaxassislarining bilim va malakalarini oshirish;

- moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va taqdim qilishda uning shaffofligi, jumladan, xalqaro taqqoslanuvchanlik, davriylik, muddatlilik va sifatlilik tamoyillariga rioya qilinishini ta'minlash;

- yetakchi xalqaro reyting kompaniyalaridan mamlakat reytingini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirib boriladi.

8. Banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini yanada kengaytirish hamda sifatini yaxshilash borasida amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar 2014 yilda ham davom ettiriladi.

Bunda asosiy e'tibor qishloq joylarida bank infratuzilmalari tarmog'ini kengaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda masofadan turib xizmatlar ko'rsatish, jumladan, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish xizmatlari («bank-mijoz», «internet-banking», «mobil-banking», «SMS-banking») ko'rsatish ko'lamlarini yanada kengaytirish bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi.

SHu bilan birga, bank plastik kartochkalarini muomalaga chiqarish hajmlarini oshirish va ulardan samarali foydalanish orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi yanada kengaytiriladi.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo'llagan holda plastik kartochkalar yordamida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar ko'lamlarini kengaytirib borishda xavfsizlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu esa, o'z navbatida, moliya bozorida raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmatlari sifatining oshishiga xizmat qildi.

SHuningdek, Markaziy bank tomonidan boshqa mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda mamlakatimizda elektron tijoratni kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli chora-tadbirlar, xususan, «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahriri ishlab chiqiladi.

9. Bank menejmenti sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'riladi. Bunda,

O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Markaziy bank O'quv markazi, Hududiy bank o'quv markazi, TIF Milliy banki, «Asaka» DATB, «Agrobank» OATB va Xalq banki o'quv markazlari, xorijiy mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari tomonidan bank faoliyatining dolzarb yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladigan kurslar va seminarlarda bank xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish ishlarini davom ettirish;

Umum qabul qilingan xalqaro me'yor va andozalarga asosan bank faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar va davra suhbatlarini tashkil etish, ularda yosh, iqtidorli mutaxassislarning ishtirok etishini ta'minlash tadbirlari amalga oshiriladi.

10. Bank-moliya sohasida ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qator tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan,

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish;

- moliya bozorida kreditorlar va qarz oluvchilar uchun zarur ma'lumotlarni olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Garov reestri to'g'risida»gi Qonuni asosida Markaziy bank huzurida «Garov reestri» davlat unitar korxonasini tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish;

- olish va yetib borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek, mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tumanlar hamda shaharlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining yuqori texnologik va innovatsion loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan kreditlar hajmlarini oshirib borish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya loyihalaridagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi huzuridagi Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tanlab olingan g'oyalar asosida loyiha hujjatlarini ishlab chiqishni moliyalashtirish hajmlarini kengaytirish tadbirlari amalga oshiriladi.

11. Bank faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish hamda uning xalqaro talab va tamoyillarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida tegishli tadbirlar amalga oshiriladi.

Jumladan, garov reestrini yuritishni tartibga solish bo'yicha Hukumat qarori qabul qilinib, unga muvofiq garov reestriga yozuvlar kiritish borasidagi shartnomalar mazmuni va ularni tuzish, ko'chirmalar olish, garov reestriga yozuvlarni kiritish uchun to'lovlarni amalga oshirish, yozuvlarni o'zgartirish va ushbu ma'lumotlardan foydalanish kabi jarayonlar tartibga solinadi.

XULOSA

1. Moliya siyosati imkon qadar ko'proq ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini, jamiyatdagi barcha qatlamlar va guruhlar manfaatlarini, real tarixiy sharoitlarni va turmushning o'ziga xos tomonlarini hisobga olsa, uning natijadorligi shu qadar yuqori bo'ladi. Bu siyosatning muvaffaqiyatida jamiyatdagi turli qatlamlar manfaatlarini va davlatning mavjud imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, amalga oshirish mexanizmini puxta ishlab chiqishning o'rni ham juda beqiyos.

2. Moliyaviy siyosatni asosiy yo'nalishlaridan biri - moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyliги va uzluksizligini ta'minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potentsiali barcha o'zgarishlarning moddiy bazasidir. SHuning uchun moliyaviy siyosatni aniqlash va uning strategik va taktik asoslarini ishlab chiqish uchun davlatning moliyaviy ahvoli, moliyaviy potentsiali, boshqacha qilib aytganda davlatning moliyaviy imkoniyatining ob'ektivligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish lozim.

3. Davlat moliya siyosati - ko'p qirrali tushuncha. Umuman olganda, uning ko'lami davlatning iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani boshqarishda ishtiroki parametrlari bilan belgilanadi. Moliya siyosati jamiyat taraqqiyotining ayrim tarixiy bosqichlarida hukmron bo'lgan nazariy qarashlarga tayanadi, uning qiymat munosabatlari unsurlariga ajralishi moliya tizimining rivojlanganligi va ayrim bo'g'inlarining mustaqillik darajasiga bog'liq.

4. Prezidentimiz I. Karimov belgilab bergan iqtisodiy strategiyadan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyotini birinchi bosqichida moliya va soliq siyosatining birinchi darajadagi chora-tadbirlari va ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- barqaror moliyaviy siyosatni amalga oshirish, davlat byudjeti defitsitini iloji boricha kamaytirish, byudjetdan beriladigan dotatsiya va subsidiyalarni barcha turlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;

- byudjet mablag'larini daromad tushgandan keyingina taqsimlanadigan yo'ldan og'ishmay borish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun byudjetdan qaytarib olmaslikni ko'zda tutib ta'minlash amaliyotidan voz kechish, ana shu maqsadlarda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;

- soliq tizimini takomillashtirish byudjet daromadlarini barqaror sur'atda to'lab turishni ta'minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarining, chet el kapitali ishtirokidagi qayta ishlaydigan va xalq iste'moli mollarini ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarni rivojlanishini rag'batlantiradigan soliq siyosatini olib borish.

5. Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan bank kreditlari hajmlarini yanada ko'paytirish va samaradorligini oshirish joriy yildagi muhim vazifalardan biridir.

6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 2014 yilda tijorat banklari tomonidan jami 7,5 trln. so'm miqdorida kreditlar ajratilishi prognoz qilinmoqda.

Bunda asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari boshlang'ich kapitalini shakllantirish, ularning investitsion loyihalari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmlarini kengaytirish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes-rejalarini moliyalashtirish, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinlarini tashkil etishga yo'naltirilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmlarini kengaytirishga qaratiladi.

SHu bilan birga, mamlakatda yanada qulay tadbirkorlik muhitini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni uzluksiz davom ettirish maqsadida ushbu sektor ishtirokchilari uchun moliya-kredit resurslaridan

keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari, mexanizmlari va amaliyoti takomillashtirib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,1992.-46 b.
2. Banklar va bank faoliyati to'g'risida. O'zbekistonning yangi qonuni. T.:Adolat,1996.-10 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasining Boj tarifi va Davlat Bojxona xizmati to'g'risidagi qonunlari. / 2000 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan /.-T.: "Adolat",2000.-240 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2006 yil 1 oktyabr holatida tuzatish va o'zgarishlar bilan) /.-T.: "Adolat", 2006 y.-128 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2003 yil 24 iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr.-T.:O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003 y.-212-237 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995.-26 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: «O'zbekiston», 2000. –352 b.
8. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida tuzuvchi F.M.Mullojonov.-T.: «O'zbekiston», NMIU. 2005. – 528 b.
9. I.A.Karimov "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" Mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, "Xalq so'zi" gazetastasi, 2014 yil 19 yanvar.
10. Alimov I.I. "Moliya" o'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007 y. 108 b.
11. Baltina A.M. «Finansовые системы зарубежных стран» Uchebnoe posobie. M.: FiS, 2007 g. 304 s.

12. Bogarov V.V. Finansovo-kreditnyy metody regulirovaniya rynka investitsiy. -M.: Finansy i statistika, 1993. –156 s.
13. Bukato V.N., Lvov YU.N. Banki i bankovskie operatsii v Rossii /Pod red. M. X. Loppdusa -M.: Finansy i statistiki, 1996-226-332s.
14. Van Xorn Dj. K. Osnovy upravleniya finansami. Per. s angl. / Gl. red. serii YA. A. Sokolov – M.: Finansy i statistika, 1996 –784 s.
15. Karlin T.R. Analiz finansovykh otchetov –M.: Infra-M,1998 –292 s.
16. Bauetdinov M.J., Bijanova M.B.,Moliya. elektron ma’ruzalar matni.- T.:TDIU, 2010. 45-46 b.
17. Vahobov A. va boshqalar Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: SHarq. 2005. 220 b.
18. Vahobov A. va boshqalar. Byudjet - soliq siyosati yaxlitligi. O’quv qo’llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2005. 285 b.
19. Galitskaya S.V. «Finansy». Konspekt lektsiy: Uchebnoe posobie. –M.: eksmo, 2007 g. 336 str.
20. Yo’ldoshev Z., Malikov T. “Uy xo’jaligi moliyasi” o’quv qo’llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, 105 b.
21. Kovaleva V.V. «Finansy»,Uchebnik. M.: izd. Prospekt, 2008 g.640 s
22. Kolpakova G.M. Finansy. Denejnoe obrashenie. Kredit: Uchebnik.postr. - 2-e izdatelstvo, pererab. i dop. - M.: Finansy i statistika, 2005. 400-402 s.
23. Malikov T., Xaydarov N., “Byudjet daromadlari va xarajatlari” o’quv qo’llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 y, 245 b.
24. Malikov T., Xaydarov N., “Byudjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni” o’quv qo’llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, 84 b.
25. Malikov T., Xaydarov N., “Davlat byudjeti” o’quv qo’llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007, 84 b.
26. Neshitoy A.S. “Finansy”. Uchebnik. –M.:«Dashkov i K» 2007 g 512 s.
27. Rodionova V. M. Finansm. M. : "Finansm i statastika", 1995, - 432s.
28. Gataullin SH. K. Soliqlar va soliqqa tortish. O’quv qo’llanmasi. O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo’mitasi, T. : 1996, - 3046.

29. Tkachuk M. Y. Gosudarstvenny byudjet. Uch. pos. Minsk: "Vqsshaya shkola", 1995, - 240 s.
30. Lobodenko N.V. Audit i diagnostika bankrotstva. G'G'"Finansi", 1997g., №2.
31. Bunkina M. K., Semenov V. A. MAKROEKONOMIKA (osnovy ekonomicheskoy politiki) Uch. pos. M.: AO"DIS", 1996, - 320s
32. Romanovskiy M.V. «Finansy» Uchebnik. –M.: «YUrayt» 2008 g. 462 str.
33. Troshin A.N., Mazurina T.YU., Fomkina V.I. Finansy i kredit. Uchebnik. M.: «INFRA» 2009. 60 s.
34. Fedulova STR.F. Finansy: uchebnik. – M.: KNORUS, 2005. - 400 s.
35. Finansy, deneznoe obrauchenie i kredit: uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. V.K. Senchagov, A.I. Arxipov i dr.; pod red. V.K. Senchagova, A.I. Arxipova. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 720 s.
36. Finansy: Uchebnik pod red. d.e.n., prof. V.P.Litovchenko. – M.: Dashkov i K, 2005. 722-724 s.
37. Finansy: Uchebnik Pod red. prof.M.V. Romanovskogo, prof. O.V.Vrublevskoy, prof.B.M. Sabanti. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: YUrayt-Izdat, 2008. 460– 464 s.
38. Finansy: Uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. pod red. V.V. Kovaleva. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 640 s.
39. Finansy:Uchebnik pod red. Gryaznovoy A.G., Markinoy ye.V.– M.: Finansy i statistika, 2008. 500-504 s.
40. Haydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv uslubiy qo'llanma, T.: Akademiya. 2005. 82 b.
41. Haydarov N. Moliya. O'quv qo'llanma. - T.: Akademiya. 2001. 56 b.
42. Tuxliev B.K., Alieva L.K. , Aliev S.K., O'zbekiston respublikasi byudjet tizimi: O'quv qullanma– T.: TDIU 2007. 140-144 b.
43. Jumanov O.M., Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. elektron ma'ruza matni. 2009. 46-50 b.

44. Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J. Davlat byudjeti. elektron ma'ruzalar matni.- T.:TDIU, 2010.56-57 b.

45. <http://www.budgetrf.ru>.- Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi.

46. <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali.

47. <http://www.google.uz>. – O'zbekiston Respublikasi qidiruv sayti.

48. <http://www.gov.uz>. – O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti.

49. <http://www.mf.uz>. – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

50. <http://www.soliq.uz>. – O'zR Davlat Soliq Qo'mitasi sayti.